



**“BIR GO‘SHAMAN, MATONATDAN SO‘ZLAYMAN...”**

Бир гүшаман, Матонатдан сүзлайман,  
Бир жүшаман, Жасоратдан сүзлайман,  
Мен ўшаман, оғир күнлар ўтмиши,  
Халқим чеккан дардан қалбим бўзлайман.

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2022-yil 20-may, №20 (2979)

3-sahifa ►►

# XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JON!

# VATANPARVAR

[www.mv-vata-narvar.uz](http://www.mv-vata-narvar.uz)

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFATIYONIY VNPARVARLIK GAZETASI



# BİLİM SARI O ADAM

O'zbekiston Respublikasi  
Mudofaa vazirligida harbiy  
xizmatchilar, xodimlar hamda ularning  
oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash  
va ma'nnaviy-ruhiy holatini mustahkamlash  
maqsadida harbiylarning farzandlariga oliy ta'lif  
muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli  
tavsiyanomalarни topshirish  
marosimi o'tkazildi.

4-sahifa ►►



# BAXT VA SAODAT MASKAN

Ko'rik-tanlov qamrovi yildan yilga kengaymoqda, mukammallahashmoqda va eng muhimi, yuzlab ibratli oilalarni yuzaga chiqarmoqda. Joriy yilda ham barcha okruglarda bellashuvlar qizg'in kechdi. Murosasiz bahslar, qiziqarli chiqishlar — harbiy oila a'zolarining bilimi, ma'naviyati, iqtidori qanchalik yuksak ekanidan dalolat berdi. Nihoyat, saralar ichra eng saralar tanloving respublika bosqichida yuz ko'rishdi. Bellashuvning mazkur yakuniy bosqichi Toshkent viloyatining purvigor tog'lari bilan bo'ylashgan harbiy qismlardan birida bo'lib o'tdi.

# HISOMIDDINOV

## MUTLAQ VAZN

### TOIFASIDA G`OLIB

18-sahifa ►►

-  [vatanparvar-bt@umail.uz](mailto:vatanparvar-bt@umail.uz)
  -  [t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[t.me/mudofaa\\_press](https://t.me/mudofaa_press)
  -  [facebook.com/UzArmiya](https://facebook.com/UzArmiya)
  -  [instagram.com/uzbekistanarmy](https://instagram.com/uzbekistanarmy)
  -  [www.youtube.com/c/UzArmiva](https://www.youtube.com/c/UzArmiva)

Tahririyat  
haqida  
ma'lumot



12-13-sahifalar ►►

# Vatanparvarlik ruhi



# «КИМ ТАЛАБГОР БҮЛСА, МАЙДОНГА...»

КИШИ БОРКИ, УНИНГ ЎЗ КЎРҚУВЛАРИ, ИЧКИ САРОСИМАЛАРИ, КЎХНА ВУЛҚОНЛАРИ БЎЛАДИ. ГОҲО УЛАР БИЛАН УМР БЎЙИ ЯШАБ ЎТИЛСА, БАЪЗИДА БИР БАҲЯДА ХАЛОС БЎЛИНАДИ. ЖАНГ КЎРГАН ОДАМНИНГ ДУНЕСИ ШУНДАЙ. У ТИТРОҚ ВА КЎРҚУВЛАРИНИ АЛЛАҚАЧОН ЎЛДИРИБ БЎЛГАН. ШУНДАНИ, ҲАР ДОИМ ЎЗИДА БИР ЭМАС, ЎН КИШИ БИЛАН ОЛИШГУЛИК КУЧ ТОПАДИ.

РАҚИБИНИ ЎЛДУЗ САНАТГАН КУРАШЧИННИГ ДАВРАДА ПОЛВОН СЎРАБ ДАДИЛ АЙЛАНГАНИНИГ ҲИКМАТИ ШУ: У ЎЗ КЎРҚУВЛАРИНИ БИРИНЧИ ФАЛАБАСИДАЁҚ Даф қилиб, ботирлиги билан қолган.

Халқ достонларида жанг саҳналари борки, душман дарагини эшитганида етти ёшдан етмиш ёшгача ёшу қарининг жангга киришга изн сўраб турган ўринларига дуч кела-верасиз. Бунинг асосий сабабларидан бири, илм ва ҳарбий таълим доимо ёнма-ён ўргатилиб, бири иккинчисига монанд олиб борилган.

7 ёшда мактабга бориб, саводи чикқан боланинг ҳарб ишидан бехабарлигидан аввало оталар номус қилган бўлса, болалар тенг-тўшлари ичидаги уятга қолган. Бунга достонларимизда талай мисоллар бор.

«**Алибек билан Болибек**» достонида Бўзўғон подшохнинг кўзи мактабдан келаётган икки хонзодга тушади. Уларнинг кимлигини билгач, Бўзўғон:

**— Баракалла сизларга, буларни бунча ўқитибсизлар мулла бўлсин деб, ё бир масжидга, ё хонақога хатиб қиласизми?**

**Бизлар сипоҳи кишимиз. Шунча, хати бўлса сипоҳларга бўлади-да, ўзи хат битса, бирор хат битса ўқиса, сипоҳнинг мулла бўлгани шу бўлади. Энди буларга сипоҳилик ўргатинглар: от чопмоқ, ўқ отмоқ, сипар тортмоқ,**

**қилич чопмоқ, ҳам найзадастлик, кирбастлик, суришбозлиқ, кўпкаритозлик. Энди шу муллалиги бўлади, — деб ўтиб кетди.**

Кўринадики, ҳарбий таълимга болнинг ҳаётида кечиктириб бўйлас жараёнлардан бири сифатида қаралган. Мартабали зотлардан тортиб оддий кишиларнинг фарзандлари ҳам имла ҳарб иши ўйғунлигига ватанпарварлик хисси билан вояга етишган. Ҳар бир ўғлон қаёндир ўз қаҳрамонлигини намоён этиш фурсатларини кутиб яшаган. Айниқса, жанг мұждасини эшитган киши борки, ҳеч иккиланмай олдинга чиқиб, имкон сўраган.

Достонлarda қаҳрамонликларнинг бундай талабирилиги жанг лавҳалирида кучайгандан-кучайди. Дарвоке, кўхна асрларда баҳшилар тилида овоза бўлган жанглар ва мард тила б даврага отилган жангчилар руҳидаги важоҳат қандай бўлган? Қуйида достонлардаги айрим парчалар орқали бу сифатларга ургу бериб ўтамиш.

**«Алибек билан Болибек»** жангномасидаги ушбу манзарага эътибор қаратамиз. Бунда юзма-юз келган икки кўшин орасидаги яккалик жанглар, кўшинга руҳ олиб бергани учун жангчиларнинг рағбати кўз олдингизга келади.

**...Шундай қилиб, Шоҳпўлатнинг лашкаридан бир одам чиқмади, Девтошга баробарлик қилмади. Ана энди Девтош кечгача танҳо бир ўзи жанг қилиб, тўрт минг беш юз кишини чопиб, кун кеч бўлган вақтда — намоздигар кўшиндан омон-эсон чиқиб бориб, Алибекка таъзим-тавозе қилиб турди. Ана энди Алибек шаҳзода Девтошга бир инъом бермоқчи бўлди. Девтош ўзига берган сарпойни ўзи кўтара олмади. Отига берган жами асбоби тиллани оти кўтара олмади.**

Қанчалик муболағавий кўринмасин, аёвсиз жанглар инсон юрагида ана шундай сўнгиз пўртанааларни ўйфота олади. Бундай жангга кирган одам, ўнлаб, юзлаб ёғийларни ер тишлатган ботир яхши билади. Халқ ўз қаҳрамонларини яратар экан, уни жароҳатлар ичидаги ҳам чидамли, матонатли қилиб кўрсатишга интилади. 28 жойидан яраланган сардор шиҳоатини достонда ўқиймиз:

**...Анда Ашурбек сардор салласини ертиб, икки кам ўттиз ярасига пахта қўйиб, дастори билан маҳкам чандиқлаб боғлаб, либосларини икки эгнига ташлаб, устидан совутини босиб, қиличини белига боғлаб, қалқонини кифтига**

**ташлаб, найзага суюниб эгарни ушлаб, «оҳ-воҳ» деб отига миниб, йигитларига бош бўлиб жангга кирди...**

Уруш саҳналари қанчалик ўткир бўёкларда чизилмасин, барибир жанг мотивлари ўз номи билан киши қалбida оғриқ ва нафра хисларини ўйғотаверади:

**...Йигитлар ҳар қайси йўлбарсдай бўлиб чирпиниб, айланан от солиб урушга кирдилар. Андоқ уруш бўлди, марги борон (ўлим ёмғири) ёққандай, кундуз кун ботгандай бўлди. Ҳар қайсиси шердек бўлиб, «Оллоҳ» деб от қўйиб, язидларни бўлаклаб, олдига солиб қирап эрдилар. Анда язидларнинг ўликлари буғдой поҳолидай бўлиб қолди.**

Юқорида жасорат кўрсатиш ҳар бир жангчининг азалий орзуси бўлиб келиши ҳақида айтдик. Шунданми, имконни бой бермай, битта полвоннинг бутун кўшинни жангга чорлаши эпик достонларда кўплаб учрайди. Бунда ботирнинг асосий мақсади душман лашкарларини саросимага солиши, уларнинг руҳини синдириш ва кўшинига руҳий устунлик олиб беришдан иборат бўлади. Ўқиймиз:

**...Шунда Мизробшоҳ рухсат ҳосил қилиб, от ўйнатиб майдонга кириб мард талаб қилиб, Халафли лашкарига қараб:**

**— Ў Пўлатшоҳнинг лашкари, бу кун майдонга мен келдим, эшитмадим дема! Қани, мардинг борми, кел энди, ҳариф келди! — деб майдоннинг бу бошидан бу бошига борди. Мизробшоҳнинг ҳайбати, саловати Халафли лашкарини шундай босди. Ҳар катта булат бориб тоги босгандай, бирор одамда юрак йўқ эди, майдонга кира олгани бирор одам қимирлаёлмай қолди. Ҳамманинг кўзи Мизробшоҳда эди.**

**...Бошимда дубулға, белда беллиги, От, анжомнинг йўқдир сира камлиги, ўттиз қўрқса, келсин қирқи, эллиги, Ким талабгор бўлса, келсин майдонга.**

Жангчининг чорлови асли шундай бўлади. Ўнинг кўрқсанг, йигирма, ўттизинг, минг, икки мингнинг жам бўлиб кел, дейди. Қараб турманг, майдонга одамсиз, урушсиз бўлиш ярашмайди. Майдонда жангсиз турмоқ мард йигитга уят. Беш минг, ўн минглаб келинглар, кўлни қизитиб турайлик, дейишнинг ўзида ҳам букилмас иродада, қадимиий ватанпарварлик руҳи бор.

Бу бир шундай эҳтиёжки, ҳар бир ўзбек ўғлони ҳалқининг минг йиллик айтимларини, ундаги жасурлик ва диловарлик хислатларини қалбига жо килмоғи зарур. Асли ким эканини хис қилган кимса борки, ҳар дам шундай бўлишга ҳаракат қилади.

Қай бир жанг саҳнасини таҳлил қилманг, барида душманда кўрқув ўйфота олиш муҳим ўринда турган. Достонда Алибек шаҳзоданинг лашкари тоғдан тушиб келиш саҳнasi бор. Қўшиннинг чангини қириб, Одилбек сардор Мизрапўлатнинг олдига бориб, тоғдан улкан чанг келяпти, дея ваҳимага тушиб, ҳаммани қочишига ундаиди.

**Ўзбек лашкарининг бари бўридири, Майдонга кирганда эрнинг эридири.**

Одилбек саркарданинг қўйида айтган сўзларига кулоқ тутинг:

**— Ў Мирзапўлат, сен ҳали ўзбекни кўрган эмассан. Агар кўрсанг эди, мен айтмас эдим. Ў ука, ўзбек келса, у ўламан-ётаман, демайди, қўшин кўп экан, демайди, от қўяди. У қўрқиб қочувни билмайди, ё ўлади, ё ўлдиради. Чарчадим, деб қараб турувни билмайди. Сен сўрама, мен айтмайин, сен эшитма. Ҳали сен нимани кўрибсан, нимани билласан, ҳали сен ёш боласан. Ўзбекларни мен кўрган, сен кўрганинг йўқ. Сен бола ҳали гапни билмайсан. Агар мен айтсам, иш ноқулай. Шу жанг жуда ёмон кўринади...**

Шундай ҳам бўлиб чиқади. Алибек шаҳзоданинг лашкарлари бирдан отларининг бошини баробар қилиб, шундай деб кичкиради:

**«Ў ёронлар! Эшитмадим дема, қайтган хотин, тойган тўқол...»**

Мисаларга эътибор қаратамиз:

Тоғдан чиқиб

Алибекнинг кўшини,

Ёвни кўриб қўйди

отнинг бошини.

Оллоҳ деб от қўйди

душман устига,

Ҳар бири чопмоқчи

мингта кишини.

Кўряпсизки, аввало кўшинда катта руҳий куч бор. Ҳар бир жангчининг мингта рақиби ўлдиришга мойил жазаваси, мақсади яққол сезилади. Бекиз достонда рақиб тараф:

**— Во ажабо, ўзбекдан икки йигит келиб, кечгача майдонда шунча кўп лашкарни қириб чиқиб кетса?! Унга ҳеч нима келмаса, бундай уруш бўлса, бу қандай бўлади? — деб ҳайрон бўлмаган.**

Дарвое, достонларда биз номини ҳам эшитмаган айрим қаҳрамонлар борки, улар шубҳасиз ҳар қандай қишида ўз жанговарлиги, ватанпарварлиги, ҳеч бир мушкулодан бўйин товламаслиги билан ажralib туради. Ҳозирча улардан иккиси ҳақида ўқувчини хабардор қилишини мақсад қилдик. Улардан бири **Сафо ўғли Чакқондир**. «Гўрўғли» туркумига мансуб ўзбек ҳалқ достонларида номи тилга олинган ушбу жангчи ўзининг довюраклиги ва мардлиги билан алоҳида ажralib турган.

Сафобек ёки Сафо ўғли Чакқон номи билан тилга олинадиган бу ботир, ёши анчага бориб қолганига қарамай, ўзининг бениҳоя жасурлиги ва маҳорати билан ёшларга ўрнак бўлиб, Гўрўғлининг қирқ йигитига сардорлик килгани айтилади.

Яна бир қаҳрамон номи **Холдорбек**dir. У ҳам Гўрўғлининг қирқ йигитидан бири сифатида тасвирланиб, ўзининг баҳодирлиги билан довруқ қозонган. **«Интизор»** достонида унга шундай таъриф берилади:

**Душманларни яксон этган, ўки нишонга теккан,**

**Не чинорларни қулатган,**

**Хосиятли сен Холдорхон.**

Ёш авлодда ватанпарварлик руҳини янада мустаҳкамлаш энг асосий вазифалардан бири бўлиб қолаётган айни дамларда жангнома достонлардаги ўлмас шижоат, юрга мухабbat, қадриятларни мунособ ҳимоя қилиш масалаларини чукур тадқиқ этиш, айниқса, достонлардаги жанговар руҳ ва мардлик фазилатлари билан ҳарбий хизматчилик яқиндан танишиши ўз самарасини бермай қолмайди. Биз кейинги мақолаларимиз орқали бу нуқталарни чуқурроқ таҳлил этишига ҳаракат қиламиз!

**Бобур ЭЛМУРОДОВ,**  
«Vatanparvar»,  
**Қуролли Кучлар академияси**  
**мустақил изланувчиси**

# Tariximiz ko'zgusi

# «БИР ГУШАМАН, МАТОНАТДАН СЎЗЛАЙМАН...»

(иккинчи мақола)



Хиндистоннинг Гужарат штатидаги «Бирдамлик» (240 м), Хитойнинг Хэнань провинциясидаги будда (153 м), Нью-Йорқдаги «Озодлик» (93 м), Россия Федерациясининг Волгоград шаҳридаги «Она Ватан» (87 м) ҳамда Рио-де-Жанейродағи Исо пайғамбар (38 м) монументлари дунёдаги энг баланд ҳайкаллар бешталигини ташкил этади. Лекин шундай ёдгорлик монументлари борки, уларнинг маҳобати баландлыги билан эмас, ҳеч бир учлам билан ўлчаб бўлмайдиган образлар билан ўлчандади.

Қадимги Хитой файласуфлари она тимсолини қандай тасвирлаганини биласизми? Оналар ўз фарзандларини дунёдаги энг баланд чўққидан ҳам баланд сүянчиғи сифатида тасвирлаган. Улар она қалбини дунёдаги энг буюк қалб соҳиби деб хисоблаганлар. Она қалби. У нималарга қодир эканлигини бутун дунё ўзбек оналари тимсолида, Иккинчи жаҳон уруши йилларида яна бир марта кўрди. Узга миллиатга мансуб норасидаларни ўз жигарбандидай қабул қилиб, уларга туққан онасидек меҳр берган минглаб ўзбек онахонлари учун ёки Зулфия Зокировадек муштипарларга дунёдаги энг баланд бешта ҳайкал сингари маҳобатли ёдгорлик ўрнатишшарт эмас. «Галаба боғи» ёдгорлик мажмуасида «Матонат мадҳияси» монументи «Нима учун?» деган саволга жавоб бўла олади...

2019 йил август – 2020 йил май ойлари. Бу давр оралиғида давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан ўзбек ҳалқининг матонати, жасорати, бағрикенглиги, тантлиги, уруш йиллари чеккан заҳматидан ҳикоя құлуви шундай ёдгорлик намуналари бунёд этилдики, уларнинг ҳар бири ҳалқимиз учун, инсоният учун бой тарихимиздан сўзлаб берувчи тимсоллар сифатида гавдаланди.

Қурувчилар, меъморлар, ҳайкалтарошлар, рассомлар, тарихчилар ва бошқа касб әгалари Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ҳамкорлигига шундай ёдгорлик мажмуаси барпо этилдики, бу мажмуя нафақат пойтахтимиз, балки бутун мамлакатимиз кўргига кўрк кўшиди. Шу ўринда кўрк сўзининг ишлатилиши кимларгадир бироз ноўрин туюлиши мумкин. Аммо матонатли, жасоратли, бағрикенг, тант, заҳматкаш ота-боболаримизнинг пок хотирасини чиройли ёд этиш ҳам ҳар бир инсонга кўрк бағишлади.

«Галаба боғи»да қад ростлаган ёдгорликларнинг муаллифлари кимлар? Уларда акс этиган образлар гояси қандай

*Бир гўшаман, Матонатдан сўзлайман,  
Бир жўшаман, Жасоратдан сўзлайман,  
Мен ўшаман, оғир кунлар ўтмиши,  
Халқим чеккан дарддан қалбим бўзлайман.*

бакалавр ҳамда магистрлик бўйича тамомладим.

Пойтахтимизда «Галаба боғи» мажмуаси бунёд этилиши ва унда кўплаб ёдгорлик ўрнатилиши бўйича Республика миқёсида танлов ўтказилиб, олти ой номзодларнинг иши кўриб чиқилди. Ушбу танловда Зулфия Зокирова ҳамда унинг урушда ҳалок бўлган беш нафар фарзанди ва келинларига бағишиланган «Матонат мадҳияси» монументи бўйича топширган ишим ҳайъат комиссияси томонидан тасдиқланди. Ўрлбой Яхшилов, Элбек Ризаев ва жамоамизнинг бошқа жонкуярлари билан лойиҳани

туғилган? Келинг, булар ҳақда имкон қадар айрим маълумотларга тўхталиб ўтамиш.

**Жасвантбек АННАЗАРОВ, 1987 йил** **Хоразм вилоятининг Урганч шаҳрида туғилган. «Галаба боғи» бош ҳайкалтароши. Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ўқитувчиси. Ўзбекистон ҳалқ рассоми («Галаба боғи»даги иши учун 2020 йил берилган).**

– Отам Баҳром Анназаров, рангтасвир йўналиши бўйича рассом. Биринчи устозим. Болалигимдан расм чизиша, кейинчалик ҳайкалтарошлиқ касбими танлашимга отам сабабчи бўлган. Онам кутубхоначи бўлиб ишлаган. Ушбу касбни танлашимда ойимнинг тарбияси ҳам мухим роль ўйнаган. Чунки болалигимданоқ китоб оламига тушиб қолганиман ва бадий тафаккурим шаклнинида онамнинг ҳиссаси катта.

Оилада уч фарзандмиз. Укам Жавлонбек, синглим Умида ва мен. Жавлонбек ҳам ҳайкалтарошлиқ билан шуғулланади. Биргалиқда ижод қиласиз. Умида керамика йўналишида фаолият кўрсатади. Ҳаммамиз ижод йўлини танлаганимиз. 9-синфи тугатиш арафасида мусиқа ёки ҳайкалтарошлиқдан бирини танлашимга тўғри келган. Чунки аввалига мусиқа йўналишида ўқигандим. Мусиқа билан биргалиқда ҳайкалтарошлиқка бўлган қизиқишим ҳам йўқолмади.

Адашмасам, 5-6-синфларда ўқиб юрган пайтим ёғочдан биринчи ишим бўлган ҳайкалчани ясаганман. Бир тарафдан қаралганда рақсга тушиб турган қиз, бошқа тарафдан назар ташланса, ҳумо қуши бўлиб кўринадиган ўша ишим мутахассислар томонидан яхши баҳоланган. Шундан кейин отам ҳайкалтарошлиқ учун ишлатиладиган асбоб-ускуналарни олиб берганди. Ўрик, гужум (садақайрағоч) ва тут даражатларининг ҳар хил шаклдаги шохларини кўриб қолсан, ундан нималардир ясардим. 2001 йил мустақиллигимизнинг 10 йиллигига бағишилаб ўтказилган «Мен нечун севаман Ўзбекистонни» деб номланган кўрик-танлов ўтказилди. Графика, рангтасвир ва ҳайкалтарошлиқ йўналишларида ташкиллаштирилган танловда ёғочдан ясалган «Она табиат» композициям билан биринчи ўринни эгаллаганман. Ўша танлов тақдимотида қатнашган марҳум устозим Ўзбекистон ҳалқ рассоми Равшан (Жалолиддин) Миртожиев (устозни яқинлаштирилган) деб аташарди – Ж.А.) билан

танишганман. Устоз ишимга юксак баҳо бериб, ўз устахонасига таклиф этган.

«Галаба боғи»даги мажмуанинг бунёд этилишида бош ҳайкалтарош сифатида танланишим сабабини устозим Жалолиддин Миртожиевдек инсондан таълим олганлигимдан деб ўйлайман. «Матонат мадҳияси», «Мангу жасорат» («Стелла»), «Мехрибон кўл», «Бахтили болалик», «Кўз ёши» («Фам-андух») каби кўплаб ёдгорлик монументларини ясаш жараённи Баҳром Норбоев, Йигитали Боқиев, Жавлонбек Анназаров, Ўтқир Асроров каби ёш истеъоддод эгалири, шогирдларимиз билан биргалиқда меҳнат қиласиз. Бу борада мажмуанинг бош меъмори Гулшоира Магометова ҳамда бош рассом Алишер Алиқулов каби инсонлар билан ҳамкорлик қилишимиз ҳар бир ёдгорлик монументи, ҳар бир композициянинг муваффакиятили чиқишини таъминлади.

Бронздан ясалган «Мангу жасорат» («Стелла») монументида машҳур ўзбек генерали Собир Раҳимов ва унинг атрофидаги 14 нафар ўзбекистонлик қаҳрамон ҳайкали тасвирланган. 14 нафар қаҳрамоннинг ҳар бири қайси қисмда жанг қилганлигини кўрсатиб беради. Мажмуага келгандар танкчи, мерган, шифокор, разведкачи, пиёда аскар, учувчи, артиллериячи каби ўн тўртта қаҳрамон тимсолида барча ўзбекистонлик жангчиларнинг сиймосини кўришлари мумкин. Ёдгорлик ўртасидан жой олган «Стелла» композицияси ўзбек қаҳрамонларининг чексиз жасоратини ифодаловчи кўкка интилган ғалаба тимсолини англатади.

**Баҳром НОРБОЕВ, 1990 йил** **Қашқадарё вилоятининг Қамаши туманида туғилган. Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ўқитувчиси. «Келажак бунёдкори» медали соҳиби. Ўзбекистон Бадиий академияси томонидан «2020 йил ҳайкалтароши» деб этироф этилган.**

– Тўғрисини айтсам, сулоламиздан ҳеч ким бу касб билан шуғулланмаган. Шунинг учун бу борада биринчи қалдирғочман. Ёшлигимда лойдан нималарнинг ясасни жуда яхши кўрардим. Ҳар сафар ўзим ясаган нарсадан кўнглім тўлмас, янада каттарок, маҳобатлироқ ижод қилишга ҳаракат қиласиз. Болалик қизиқишим ва келажакдаги орзуларимни амалга ошириш учун аввалига Беньков номидаги Республика рассомчилик коллежини, Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институтининг

амалга оширишга киришдик. Биринчи навбатда Зулфия Зокирова яқинлари билан оила тарихини чукур ўргандик. Мазкур ёдгорлик монументи ҳар томонлама мукаммал чиқиши учун унда акс этириладиган образларга, деталларга алоҳида ўзибор қаратдик. Чунки Президентимиз 2019 йил Хотира ва қадрлаш кунига бағишиланган тантанали маросимда сўзлаган нутқида «Яхшилар номи ҳеч қаҷон унтутилмайди. Биз эзз ният билан барпо этадиган «Галаба боғи» марказига Зулфия Зокирова ва унинг фронтдан қайтмаган беш ўғли, садоқатли келинлари хотирасига атаб муҳташам ҳайкал ўрнатасак. У бутун ўзбек аёлларининг тимсолини ўзида ифодаласа...» деган гаплари ҳали ҳам ёдимдан чиқмайди. Давлатимиз раҳбари Зулфия Зокирова матонати ва бардошига айтган таҳсими тимсолида бутун ўзбек оналари ҳамда фронтдан умр йўлдошини йиллар давомида кутган минглаб аёлларимизни низарда тутганди. Шунинг учун Зулфия Зокирова хотираси учун ўрнатиладиган ёдгорлиқда барча ўзбек оналарининг тимсолини акс этира олишдек масъулиятли вазифани олдик.

Қисқа вақт ичидаги қад ростлаган ёдгорлик монументида Зулфия Зокированинг ўғилларидан келган учбурчак шаклидаги 9 метрлик бешта «қорахат» кўриниши. Уларнинг ҳар бирининг тепа қисмida урушга кетишидан олдин тишланган нон рамзи. Она ва келинлар ҳайкаллари 6-6,5 метр ва улар бронздан ишланди.

Юқоридаги масъулият менга устозим Азамат Хатамовдан олган ўйтларим ва ёшлидаги орзуларимни амалга ошириш имкониятини яратиб бергандигини хис қилган ҳолда, ўзимга билдирилган ишончни оқладим. Камтарона меҳнатидан мамнунман. Камтарлик қиялпти деб ўйламангу, албатта қилган ишларимдан ҳеч қаҷон кибрланмайман. Ўз олдимга янги-янги мақсадларни кўйган ҳолда олға интилавераман. Янги-янги лойиҳалар муаллифи сифатида ҳалқимиз учун хизмат қилишда давом этаман.

«Матонат мадҳияси»га қадар ҳам кўплаб ишларимни ҳалқимиз эътиборига ҳавола этганлигимни айтиб ўтмоқчиман. Мисол учун, «Адиблар хиёбони»даги Абдулла Қодирий, Абдулла Орипов, Озод Шарафиддинов, Абдулла Авлоний, Бердак, Марғilonдаги Эркин Воҳидов, Сирдарёдаги Ҳалима Ҳудойбердиева каби адиларимиз ҳайкаллари шулар жумласиданди.

Асрор РЎЗИБОЕВ

# Tavsiyanoma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGIDA HARBIY  
XIZMATCHILAR, XODIMLAR HAMDA  
ULARNING OILA A'ZOLARINI IJTIMOIY  
QO'LLAB-QUVVATLASH VA MA'NAVIIY-  
RUHIY HOLATINI MUSTAHKAMLASH  
MAQSADIDA HARBIYLARNING  
FARZANDLARIGA OLIV TA'LIM  
MUASSASALARIGA O'QISHGA KIRISH  
UCHUN IMTIYOZLI TAVSIYANOMALARNI  
TOPSHIRISH MAROSIMI O'TKAZILDIDI.  
UNDA MUDOFAA VAZIRLIGI MARKAZIY  
APPARATI HARBIY XIZMATCHILARI  
HAMDA ULARNING OILA A'ZOLARI,  
VAZIRLIK MAS'UL OFITSERLARI  
ISHTIROK ETDI.



# BILIM SARI QADAM



5 foizli kvota doirasida oliv ta'lrim muassasalariga o'qishga kirishi uchun berildi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatni o'tashda halok bo'lgan, shuningdek, harbiy xizmatni o'tashda yarador bo'lgan, kontuziya, shikast olish natijasida nogiron bo'lib qolgan yoki kasallikkarga duchor bo'lgan harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliv ta'lrim muassasalarining bakalavriatiga davlat granti asosida tanlovsiz qabul qilinishi belgilab o'tilgan. Birgina o'tgan davr mobaynida 980 nafarga yaqin harbiy xizmatchining farzandlariga tavsiyanomalar berildi. Ularning 43 nafari esa oliv ta'lrim muassasalarining bakalavriat bosqichiga davlat granti

polkovnik Mehriddin Qo'chqorov tomonidan tantanali ravishda topshirildi.

– Albatta, harbiy xizmatchilarning farzandlari orasida bunday tavsiyanomalarga loyiqlari bisyor, – deydi Azizbek Sabirov. – Ochig'i, ushbu tavsiyanomani olishim men uchun kutilmagan hol bo'ldi. Shu sababdan bugungi hayajonimni so'z bilan ifoda etib bera olmayman. Bu biz uchun quvonchli, shuningdek, o'ziga xos mas'uliyat ham demakdir. Shuning uchun ham biz, yoshlar yaratilayotgan bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda kelajakda o'z sohamizning yetuk kadrlari bo'lib yetishishga va'da beramiz.



Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak, aynan shu to'g'rida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori imzolangan edi. Tavsiyanomalar

tanlov asosida mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan, jangovar xizmatda va ilmiy faoliyatda muayyan natjalarga erishgan haqiqiy xizmatni o'tayotgan ofitserlarga, serjantlar va oddiy askarlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning farzandlariga

asosida tanlovsiz qabul qilinishi to'g'risidagi tavsiyanomalarga ega bo'lishdi.

Mazkur marosimda ham 31 nafar yigit-qizga tavsiyanomalar vazirlikning Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinosi – boshqarma boshlig'i

Tadbirso'ngida Qurolli Kuchlari Markaziy ashula va raqs ansambl xonandalari tomonidan kuy-ko'shiqlar sadosi yangradi. Bo'lajak talabalar esa bu kundan esdalik qolishi uchun suratlarga tushishdi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,**  
"Vatanparvar"

# O'quv-uslubiy yig'in

# АЁЛ, ОИЛА, ҲАЁТ УЙГУНЛИГИ

**МАНА, БИР НЕЧА ЙИЛДИРКИ,  
МУДОФАА ВАЗИРЛИГИ ҲАРБИЙ ҚИСМ  
ВА МУАССАСАЛАРИДА ФАОЛИЯТ  
ЮРИТАЁТГАН ХОТИН-ҚИЗЛАР ВА ҲАРБИЙ  
ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ ОИЛА АЪЗОЛАРИ  
БИЛАН ИШЛАШ БЎЙИЧА ЕТАКЧИ  
МУТАХАССИСЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ  
БЎЙИЧА ЎҚУВ-УСЛУБИЙ ЙИГИН ЎТКАЗИШ  
ЙЎЛГА ҚЎЙИЛГАН. МАЗКУР ЙИГИН  
СОҲАДА ИШ ФАОЛИЯТИ  
САМАРАДОРЛИГИНИ  
ОШИРИШДА МУҲИМ  
АҲАМИЯТ КАСБ  
ЭТАДИ.**



Bahrrom ABDURAHIMOV



Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси билан ҳамкорлика «Оила ва хотин-қизлар» илмий-тадқиқот институтида таникли олимлар, тадқиқотчилар иштирокида навбатдаги ўқув-услубий йигин бўлиб ўтди. Илмий-тадқиқот институти ташкил этилганига кўп вақт бўлгани йўқ. Мазкур маърифат даргоҳининг илк малака оширувчилари Мудофаа вазирлиги тизимида фаолият кўрсатаётган етакчи мутахассислар бўлди.

Йигин кун тартиби, унинг аҳамияти, кутилаётган натижалар ҳақида Мудофаа вазирлиги хотин-қизлар ва ҳарбий хизматчиларнинг оила аъзолари билан ишлаш бўйича бош мутахассиси Зулфия Мансурова маълумот берди. Шундан сўнг «Оила ва хотин-қизлар» илмий-тадқиқот институти директори Нодира Эгамбердиева, илмий ишлар бўйича директор ўринbosари Ойниса Мусурмонова оиланинг жамият ҳаётидаги ўрни, онанинг

тарбиячилик мақоми, бугунги тадбирнинг аҳамияти ҳақида мулоҳазаларини баён этдилар.

Дастлабки машғулотларда ёқ йигин самарадорлигини ошириш мақсадида иштирокчилар гурухларга бўлинди. Педагогика фанлари номзоди, доцент Ҳусниддин Норкулов, психология фанлари номзодлари, доцентлар – Ҳасанбой Абдусаматов, Р. Исмайлолованинг маъruzalari катта қизиқиш билан тингланди.

Шунингдек, психологлар – Д. Мирҳамирова, Д. Аюбова томонидан ўтказилган «Оилада ижтимоий муаммолари мавжуд аёлларга амалий психологик ёрдам кўрсатиш» мавзусидаги психологик тренинглар, амалий машғулотлар ҳеч кимни лоқайд қолдирмади.

Эътибор берганмисиз, тақдирлаш маросимлари бир-бирига жуда ўхшаш бўлади. Аммо бу соҳада ана шу бир хилликни кўрмайсиз. Бугун рағбатлантирилганлар орасида кўпдан шу соҳада фидокорона меҳнат қилиб келаётган «Содиқ хизматлари учун» медали соҳибаси Тамара Маманова, Юлдуз Ғафуровалар қа-

торида Тошкент ҳарбий округидан Одина Одилова номи алоҳида тилга олинди. Қайси хизматлари учун, деган ҳақли савол туғилди. Унинг хизматлари шундаки, етакчи мутахассиснинг саъй-ҳаракатлари билан 193 киши иш билан таъминланган!

Бундан ташқари, 2021/2022 ўқув йили учун голиблар ҳам аниқланди. Соҳа фидойилари кўплигидан уларни аниқлаш бирмунча мушкуллик туғидирди. Шунинг учун фахрли учинчи ўринга икки киши – Гулноз Очилова, Шахло Камолжонова муносиб топилди.

Иккинчى ўрин Фароғат Ҳайитова-га насиб этди.

Биринчи ўринни Шимоли-ғарбий ҳарбий округдан Азира Бекимбетова эгаллади.

**Етакчи мутахассис Гулбаҳор Ҳабибуллаева:**

– Ўқув-услубий йигин жуда сермаҳсул кечди. Айниқса, «Оила ва хотин-қизлар» илмий-тадқиқот институтида ўтказилиши биз учун кутилмаган воқеа бўлди. Олимлар, психологлар сұхбатидан баҳраманд бўлдик. Булар барчаси кейинги

фаолиятимиз самарадорлиги учун мухим омил бўлиб хизмат қиласди.

**Етакчи мутахассис Юлдуз Ғофурова:**

– Аудитория Мудофаа вазирлиги тизимида хизмат қилаётган психологлардан иборат бўлади, дейишган эди, дея бироз ҳайронлигини билдириди психолог олим Р. Исмайлова. Ўйланиб қолдим, биз, етакчи мутахассислар ҳам аслида психолог эмасмизми?! Яширишнинг ҳожати йўқ, муаммоли оиласлар ҳам бор. Инсон психологиясини билмай туриб, муаммоларни ҳал этишда уларга кўмакчи бўла олмайсиз. Фоят сермазмун машғулотлар, ўқув жараёнлари учун тадбир ташкилотчиларидан миннатдормиз.

**Етакчи мутахассис Покиза Валихонова:**

– Ушбу ўқув-услубий йигинни ўзига хос тажриба алмашув ҳам десак бўлади. Фаолиятлари эътироф этилган етакчи мутахассислар орасида ёшлар ҳам кўпчилик эканлигига гувоҳ бўлдик. Йигин давомида улар эришган муваффақиятлар алоҳида тилга олиб ўтилди. Машғулотларда қурук, расмий маърузалар бўлмади, иштирокчиларнинг ҳар бирига ўз фикрини билдириш имкони берилиди, қизгин баҳс-мунозаралар билан кечди, йигин.

Икки кун давом этган ўқув-услубий йигин якуннида иштирокчиларга сертификатлар топширилди. Етакчи мутахассиснинг фаолияти самарадорлигини таъминлайдиган сертификатларни илмий-тадқиқот институти директорининг ўринbosари Ойниса Мусурмонова топшириди.

Аёл, Оила, Ҳаёт уйғунлигини ўзида акс эттирган анор тасвири ҳам иштирокчиларнинг нозик таъбларига мос тусди.

Етакчи мутахассисларни полковник Мехридин Қўчқоров кутлади.

**Инобат ИБРОҲИМОВА,  
«Vatanparvar».  
Зарифа ТУРДИЕВА,  
Мудофаа вазирлиги  
бош мутахассиси**

Keling, kitob o'qiyimiz!



Адабиётимиз кундан кунга янги ёзувчилар, шоирлар билан бойимоқда. Янгича ёндашувлар, янгича қарашлар, ўлмас мавзулар билан қоришиган асарлар яратилмоқда.

Бугуннинг шундай ўзига хос йўналишига эга ёзувчиларидан бири Рахшона Аҳмедовадир.

Бу ёзувчини кўпчилигингиж ҳали яхши таниб улгурмаган бўлсангиз керак. Шунинг учун ижодкор ҳақида бироз маълумот бериб ўтишни лозим топдик. Адиба 1987 йил

11 апрелда Фаргона вилоятининг Ўзбекистон тумани Қайқубот қишлоғидаги туғилган. Дастлаб Жанубий

Кореяning Пусан чет тиллари университетидаги таҳсил олди, кейинчалик эса Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Халқаро журналистика факультетини тамомлади.

Ўзбекистон Ёзувчилар ўюшмасининг «Биринчи китобим» лойиҳасида «Орзу ва денгиз» номли ilk китobi чоп этилган. Ҳозирда у Жанубий Кореяning Сеул шаҳрида яшаб ижод қилмоқда.



Fikr va mulohazalariningizni manziliiga jo'natishingiz mumkin  
@Vatanparvargazetasi\_bot

# «Мени кечир, Кумико!»

Қўйида сизларни ёзувчининг «Соябон остида» китоби билан таништироқчимиз. Китоб бир қанча ҳикоя ва қиссалардан иборат. Мазкур тўпламга жамланган асарларда адабанинг жаҳонгашталиги, кўп юртлар ва одамларни ўргангани, кузатгани билинади. Осиё ҳалқларининг гўзал, аммо ўта мураккаб оламини очишида ёзувчи улар билан бирга ҳаёт кечигргани ҳикоя ва қиссаларнинг ҳаққоний ва табиий чиқишига сабаб бўлганини таъкидлаш жоиз.

## ИНСОН ҚИДИРГАН ОВУНЧОҚ

Жамиятлар орасида турли тафоутлар бор. Ривожланган давлатларда қадриятларнинг жар ёқасига бориб қолгани ҳеч кимга сир эмас. Инсонлар бир-биридан узоқлашиб, ўзларига бошқа овунчоқ қидирмокдалар. Одамзоднинг ўз оиласидан ажраб чиқишини тўғри йўл деб билишяпти. Лекин инсон қалби доим меҳр ва фамхўрликка муҳтож-ку. Нега ривожланишнинг чўққисидаги давлат вакиллари ёлғизликни севишади?! Уй ҳайвонларига ота-онасига бериши керак бўлган эътиборни беради. Менда бу фикр ва мулоҳазалар «Мени кечир, Кумико!» ҳикоясини ўқиганимдан сўнг пайдо бўлди. Ҳикояда ўзбек қизининг чет давлатда ўқиётган вақтида дугонаси билан бўлган дўстлик муносабатлари, ҳаётга бўлган қарашлари, оила хусусидаги фикрлари моҳирлик билан ифодаланган:

«– Шу бир жоноворга нега бунча меҳр кўймасанг, ундан кўра турмушга чик, болали бўл, ана уларга меҳр берсанг бўлади.

– Турмуш қуриш менга эмас, – деди қулиб.

– Оила жиддий масала, ўйлаб кўришим керак, – деди у доимигидек кучугининг бошини силаб кўяркан.

...Бола ортиқча юк! Мен кучукдан хоҳлаган пайт воз кечишим мумкин, лекин боладан... кечиб бўлмайди».

«...Афсусда эдим. Билиб-билмай дугонам ҳаётини барбод қилиб кўйганимни энди тушунгандим. Айборд эдим. Қалбимдан отилиб чиқсан бир сўз тилимга кўчди: «Мени кечир, Кумико!»

## НОМАЪЛУМ АЁЛ

Она қалби дунёнинг барча бурчакларида бир хил уради. Унинг оҳангига, ундан тараалаётган меҳр ва зиёнинг чек-чегараси бўлмайди. У доим боласи учун қайғуриб яшайди. Чунки

она зоти табиатан шундай яратилган. Фарзандининг ютуқларида унинг меҳнати, сабри қанчалик аҳамияти бўлмасин, «Боламнинг ўзи иқтидорли эди», дейди. Бу бутун дунё ОНАларининг фикри. Аммо, афсуски, фарзандларда онага бўлган муносабат ҳар хил. Онаға кўрсатилаётган эътибор, берилаётган меҳр турлича. Гоҳида салбий, гоҳида ижобий. Сизу бизнинг назаримиз кексайган чоғида ёлғиз қолган оналарга тушганида юрагимиз ачишади, уни шу ҳолга ташлаб қўйган фарзандларини маломат қиламиш. Баъзи давлатларда эса бу оддий ҳол, яъни вояга етган фарзанд ўз ҳолича яшашни бошлайди.

Рахшона Аҳмедованинг «Номаълум аёл» ҳикоясида миллат оналари ҳақида сўз боради. Бири ўзбек онаси бўлса, иккинчиси корейс онаси. Иккиси ҳам фарзандларига борини берди, уларнинг қизиқишилари билан ошно бўлди, уларнинг нурли келажаги учун ҳаракат қилди. Аммо вақт ўтиб фарзандга кўрсатган меҳрнинг жавоби турли хил бўлди. Асарни ўқиганингизда бу ноҳақликни кўриб, кайфиятингиз тушади, «Нега, ахир у ҳам она-ку?!» деган хитоб бўғзингизни куйдиради.

«Фарзандларининг нимани яхши кўриши ҳақида тўлқинланиб гапи-раркан, она бечоранинг нимани яхши кўриши ҳақида ҳеч ким оғиз очмагани жаҳлимни чиқарди».

«Ортимга қарадим. Қайтишга қарор қилгандим. Мени уришса ҳам, урса ҳам майли. Онасиз қолмасам бўлгани. Балки, ўрай онам баданидаги кўкиш излар яна кўпайишини истамагандирман.

Дарвоза олдида онам илҳақ турарди. Ялангёё... Бошидаги рўмоли силиқиб, сал нарига тушиб қолган, тушганини-да сезмаган... У мени кўриб, ҳайрон қолди, бироқ ҳеч нима демади. Кўзларида ёш кўргандай эдим.

Шундан кейин мени бошқа уришмай кўйди. Укам ёмон иш қилса, чи-дарди, тишларини тишларига босганида ғижирлаб кетар, ёмон қарап, бироқ урмасди.

Қайсиdir кун ёдимга тушиб, онам билагидан кўкиш изларни қидирдим, тополмадим».

## ТУШУНАРСИЗ СЕВГИ ИЗХОРИ

Гуллар билан боғлик шеърми, ҳикоями ўқиганингизда қалбингизга илиқлиқ сизиб киргандек бўлади. Бу ҳикоянинг қаҳрамонини гулшунос десак ҳам хато бўлмас. У гулларга шундай қизикадики, ҳаётини уларсиз

тасаввур қилолмайди. Гулларнинг қандай маъно билдириши ҳақидаги билганлари сизу бизни ҳайратга солиши табий.

«Мойчечак – ёшлик рамзи, чиннингуллар эса биринчи севги ва эҳтиросдан сўзлайди. Сарик чиннингуллар «Сиз мени хафа қилдингиз» деб гина қилаётгандек, пушти чиннингуллар эса «Мен сизни ҳеч қачон унумтамайман», дейди. Пиёнгул – нағислик рамзи, унда яширин бир ният, пинхоний туйгу мужассам. Оқ сумбул «Сиз гўзалсиз», дейди, сариги эса ҳасаддан сўзлайди...»

Ҳикояда бундай маъноларни жуда кўп учратасиз. Қаҳрамон улкан қалб эгаси. У бошқа асарлардаги каби қаҳрамонликлар кўрсатмайди, кўплаб яхши хислатларини кўз-кўз қилмайди. У сиз ва мен сингари оддий, лекин камтар, камсуқум, соддадил инсон. У бошқаларни ўзидек тасаввур қилади. Айниқса, бошқалар ҳам мендек гулларнинг сўзларини тушунади, деб ўлаши унинг энг катта хатоси эди.

## Китобдан ўқиймиз:

«Бу дунёда гуллар кўп. Гуллар орқали инсон ўз севгисини ва ёки ҳурматини билдириши мумкин. Гуллар бизга кўп нарсани айтади, фақат уларни эшитмаймиз, холос. Гуллар аслида, одамларнинг бир-бирини тушуниб олиши ва ҳис-туйғуларини ифода этишига ёрдам бериш учун яратилган.

...Лекин гул дўконим тепасига катта ҳарфлар билан ёзил қўйганман. «Бир-Биринингизга гуллар ҳадя этиб туринг. Зоро, одамлар гуллар тилини унутиб қўйишасин».

Биз Рахшона Аҳмедованинг «Соябон остида» деб номланган ҳикоя ва қиссалар тўпламидан жой олган бир қанча ҳикоялари ҳақида фикр юритдик. Эътиборли жиҳати шундаки, адабанинг барча асарларида Ватанга бўлган соғинч уфуриб туради. Унинг ўз юртидан узоқда бўлса ҳам ўзлигини йўқотмагани қувонарли. Ёзувчи ижоди билан таниш бўлган ўқувчи фикримни қўллаб-қувватлаши шубҳасиз.

АЗИЗ газетхон, биз сизни тўпламдан жой олган энг яхши асарлар билан танишитирдик. Сиз ёзувчининг қалб кечинмаларини яхшироқ англашни истасангиз, ушбу китобни албатта мутолаа қилинг. Балки, сиз саралаб оладиган ҳикоялар номи ўзгарар. Сабаби ҳар бир китобхоннинг ўздиidi ва қарашлари мавжуд.

**Муаттар МЕЛИЕВА,  
«Vatanparvar»**

# 18-may – Xalqaro muzeylar kuni



# ХАЛҚ ТАРИХИНИНГ КЎЗГУСИ



**Ҳар бир давлат тараққиёт сари интилар экан, доимо ўз тарихига назар ташлаб,**

**миллатнинг урф одатлари, анъаналари, қадриятлари ва маданий мерос**

**ҳисобланган ёдгорликларни ўрганишга ва уларни сақлаб қолишга интилиши табий.**

**Миллатнинг тарихи ва маданий меросини асраб-авайлашда музейларнинг ўрни бекиёс. Чунки ёш авлодни комил инсон сифатида тарбиялашда, аждодларимиз ва аллома**

**боболаримизнинг босиб ўтган йўлларини барчага ўrnak қилиб кўrsatiшда бу каби сири масканлар**

**аҳамиятини ҳеч бир нарса билан қиёслаб бўлмайди.**

Ўзбекистон музейлари 130 йиллик тарихга эга. Республикада жами 124 та музей ва унинг филиаллари фаолият юритиб, шундан 49 таси асосий музейлар, 75 таси филиалларидir. Шунингдек, музейларнинг 7 таси бевосита музей-қўриқхоналар ҳисобланади.

Сўнгги 4 йил давомида республика бўйича 11 та янги музейлар ташкил этилди (Мўйноқ Экология музейи, Шахрисабз шаҳридаги «Мақом музейи», Эркин Воҳидов уй-музейи, Мутал Бурхонов уй-музейи, Хазиний уй-музейи, Абдулла Қодирий меъмориал музейи, Абдулла Қодирий уй-музейи, Эргаш Жуманбулбул ўғли ёдгорлиги музейи, Бердак номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейи, Маҳмудхўжа Беҳбудий уй-музейи, Тошкент тумани тарихи музейи).

Мамлакатимизда музейлар соҳасидаги ҳуқуқий муносабатлар Ўзбекистон Республикасининг 2008 йилги «Музейлар тўғрисида»ги қонуни билан тартибига солиниб келинмоқда.

Шу билан бирга, сўнгги йилларда музейлар фаолиятини такомиллаштиришга қаратилган қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди.

Президентимиз ташабbusi билан 2017–2027 йиллар давомида музей ашёларини ишончли сақлаш, ташриф буюрувчилар, хусусан, имконияти чекланган шахслар учун қуляй шарт-шароитлар яратиш, туристларга хизмат кўрсатишини ривожлантириш, архитектура-режалаштириш, интеръер, дизайн ва ландшафт ечимларига эътибор қаратган ҳолда ҳар бир музей биносининг эскиз лойиҳасини музейнинг йўналиши ва мазмун-моҳиятидан келиб чиққан ҳолда тасдиқлашни назарда тутивчи 10 йиллик давлат дастури қабул қилинди.

Ўзбекистонда музейлар жамиятининг маънавий савиасини оширишга хизмат қилувчи ижтимоий-маданий институт сифатида алоҳида ўрин тутишини инобатга олган ҳолда, мазкур соҳада рақамли технологиялар имкониятларидан кенг фойдаланиш орқали жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари музейлари тизимига қўшилишини таъминлаш мухим омил бўлиб хизмат қиласди.

Дунёнинг ривожланган ва бой тарихга эга давлатлари ўз музейлари фаолиятини такомиллаштириш орқали улардан мамлакатнинг туристик салоҳиятини ривожлантириш борасидаги имкониятларидан фойдаланиб келмоқда. Бунинг натижасида, умуминсоний қадриятларнинг аҳамияти ортиб бораётган глобаллашув жараёнida дунё тарихи ва маданияти учун аҳамиятли бўлган моддий ва маънавий ёдгорликларни кенг оммага тарғиб қилиш жараёни кучаймоқда. Буни амалга оширишнинг энг самарали йўлларидан бири сифатида эса жаҳонда музейларни виртуаллаштириш амалиёти кенг кўлланимоқда.

Виртуал музейлар орқали дунёнинг исталган чеккасида бўлган инсон музейдаги маданий мерос обьектлари ва экспонатларнинг 3D тасвири билан танишиб чиқиш ҳамда экспонатлар ҳақида умумий визуал тушунчага эга бўлиш имкониятини қўлга киритади. Музейларнинг ягона платформа ва дастурлари яратилган бўлиб, мазкур ахборот тизимлари орқали уларнинг фаолияти ҳақида ташриф буюрувчиларда

маълумотлар шаклланиб боришининг гувоҳи бўлишимиз мумкин.

Ўзбекистон амалий санъат ва ҳунармандчилик тарихи давлат музей мисолида таҳлил қиласидан бўлсак, бугунги кунда пандемиядан сўнг музейга сайёхларни қайтариш, улар учун замон талаблари даражасида қуляйликлар яратиш, халқаро тажрибадан келиб чиққан ҳолда экспозиция шароитларини яхшилаш, музей фонд захира хоналарини кенгайтириш юзасидан қатор лойиҳалар ишлаб чиқилмоқда. Шунингдек, ахолининг кенг қатламини жалб қилиш мақсадида музейда мунтазам равишида «Музейда тун», «OPEN AIR FEST», ҳунармандлар ярмаркалари, Жаз концертлари каби қатор маданий-маърифий, кўнгилочар тадбирлар, кўчма кўргазмалар ташкил этиб келинмоқда.

Пандемиядан сўнг чегараларнинг очилиши, туризм соҳасини тикилаш мақсадида қабул қилинган қарорлар ва кўрилаётган чора-тадбирлар натижасида 2022 йилнинг ўтган даври мобайнида ушбу музейга 8 мингга яқин сайёх ташриф буюреди. Шундан



2,5 мингга яқинини маҳаллий аҳоли вакиллари ташкил этади. Бу ўтган йилнинг мос даври билан солиширганда 2,5 баробарга кўп.

Музейлар ўртасида ҳамкорликни ривожлантириш мақсадида мамлакатимизнинг кўзга кўринган бир қатор музейлари, жумладан, Қўқон давлат музей қўриқхонаси, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари давлат музейи билан ҳамкорлик меморандумлари имзоланди ва бундай ҳамкорлик алоқаларини бошқа музейлар билан ҳам ўрнатиш мақсадида зарур чоралар кўрилмоқда.

Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш жоизки, 2021–2022 йиллар давомида Ўзбекистон амалий санъат ва ҳунармандчилик тарихи давлат музейида 60 дан зиёд маънавий-маърифий тадбирлар ва кўргазмалар ташкил этилган бўлиб, шулардан 9 таси ийрик тадбирлар, 21 га яқин кўргазмалар, қолган 30 тасини эса музейда бўлиб ўтган маданий-маърифий учрашувлар ташкил этади.

Музейларни кенг оммага тарғиб қилиш, ташриф буюрувчиларнинг сонини янада ортишида оммавий ахборот воситаларининг ҳам ўрни бекиёсdir. Шу жумладан, музейда доимий равишида музей фаолиятини ёритувчи, уни тарғиб қилувчи маҳсус видеороликлар суратга олиб борилади. Биргина шу йилнинг ўзида 10 га яқин музей тўғрисидаги видеороликлар тайёрланди. Бундан ташқари, музей ҳаёти, унда бўлаётган жараёнлар, тадбирлар ҳақидаги маълумотларни мунтазам равишида музей ижтимоий тармоқлари орқали кузатиб бориш мумкин.

Ҳозиргача музейни Virtual-sayohat орқали турли мамлакатлардан 32 мингга яқин инсонлар томошча қилишган.

**Нодирабегим СОБИРОВА,**  
**Ўзбекистон амалий санъат ва ҳунармандчилик тарихи давлат музейи матбуот котиби**



# Posbonga aytar so'zim

# «Ватан тасвири бир асарга сиғмайди»

– Рустам ака, илк чизган расмнинг эсингиздами?

– Бизнинг уйимиз Амударёга яқин жойлашган эди. Шу дарё кирғоқларида текис құмлайлар бўларди. Шу құмлика қозабақи таёқчалар билан ҳар хил расмлар чизар эдим. Шунингдек, нақш гулларини чизишни яхши кўрардим.

Иккинчи синфда ўқиб юрганимда акам менга Ҳамид Олимжоннинг «Ойгул билан Бахтиёр» эртак-достонини совға қилган. Шу китобдаги расмлар мени ўзига ром қилди. Шундан бўён ранглар оламидаман.

– Айтишларича, биринчи синфда синфдошларингизга ҳуснхатдан, қизларга каштага нақш чизишдан сабоқ берган экансиз?

– У пайтларда маҳсус дафтарга ҳарфларни ёзиб келиш уй вазифаси қилиб бериларди. Менинг ёзган ҳарфларим ўқитувчимга маъқул бўлиб мақтаб ќур, кўпинча доскага чиқиб ёзиб кўрсатишими.



яна билим олиш мақсадида Харьков бадиий-саноат институтига ўқишига кирдим. Оилавий шароитим туфайли З-босқичда ўқишимни Островский номидаги Тошкент театр ва рассомчилик институтига кўчирдим.

– Италиялик элчиноним бир асарингизга узоқ тикилиб, муаллифни топиб беришларини сўраган экан? Нега?

– Ўшандо мустақиллигимизнинг илк йиллари эди. Эски шаҳарга бағишинланган асарим кўргазмада намойиш этилаётганди. Бу асарда қадимги тор кўчаларнинг кун ботиш пайтидаги ҳолати тасвирланган. Хоним асаримни кўрган заҳотиёқ сотиб олган ва муаллифни топиб беришни сўраган. Бир ой чамаси мени қидириб, уйимга келган эди. «Италияда бўлғанмисан?» – деб сўради. Мен бу давлатда бўлмаганлигимни айтганимда роса ҳайрон бўлганди. Чизганларим унинг тушида кўринган манзара экан.

– Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда тасвирий санъатнинг ўрни ҳақида...

– Тасвирий санъат пайдо бўлганидан бошлаб, тарбияга хизмат қилган. Манзарани эшитиш бошқа, ўз кўзинг билан кўриш бошқа. Яхши асар ҳар қандай киши қалбини тўлқинлантиради, унинг ҳаётга қизиқишини оширади, эстетик ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашга хизмат қиласди. Тасвирий санъат асрлар давомида инсон ҳаёти, турмуш тарзи, воқеалар, маросимлар

ҳақида маълумот ва билим беришга хизмат қилиб келмоқда.

– Сизнингча, Ватаннинг сурати бир асарга жойлашадими?


– Менинча, онамиз, отамиз, яқинларимиз қиёфаси, чор-атроф манзараси – Ватан. Демак, шундай экан, Ватан тасвири бир асарга сиғмайди. Сиғдириб бўлмайди. Биз, мусаввирлар ҳали Ватанимизни тўлақонли чизиз бера олганимиз йўқ. Бироқ қўйловуштириб ўтирган эмасмиз. Изланяпмиз, ҳаракат қиляпмиз.

– Амир Темур, Бобур, Спитамен, Тўмарис, Жалолиддин Мангуберди портретларининг яратилиши борасида қисқача гапириб берсангиз.

– Бу шахсларнинг портретини яратиш осон бўлмади. Бунинг учун икки ярим минг йиллик тарихимизни ўрганишга тўғри келди. Албатта, кўп китобларни ўқиши, синчиклаб маълумотлар йиғиш зарур бўлди. Бунга тарихчиларимизнинг маслаҳати, ёзган мақолалари, китоблари, фильмлар менга катта ёрдам берди.

– Армияга борганимисиз?

– Ўқишини битирганимдан кейин ҳамма қатори ҳарбий хизматга чақи-



## СУҲБАТДОШ ҲАҚИДА МАЪЛУМОТ:

Рустам ХУДАЙБЕРГАНОВ –  
Ўзбекистон халқ рассоми,  
профессор.

1946 йил Хоразм  
вилоятининг Урганч тумани  
Юқори Дўрман қишлоғида  
туғилган. Тошкент давлат  
педагогика, Тошкент  
театр ва рассомчилик  
институтларида ўқиган.  
Асарлари 1979 йилдан  
бошлаб республика ва  
хориждаги кўргазмаларда  
намойиш қилинган.  
Халқаро рассомлар  
конфедерацияси ҳамда  
Ўзбекистон Бадиий  
академияси аъзоси.

«Амир Темур портрети»,  
«Бобур», «Гулбадан  
бегим», «Жалолиддин  
Мангуберди», «Султон  
Абдурашид мирзо»,  
«Тўмарис», «Феруз  
портрети», «Ал-Хоразмий»,  
«Ал-Беруний», «Ибн  
Сино», «Оғаҳий», «Асло  
таслим бўлмаймиз!» қаби  
ўнлаб тарихий асарлар  
муаллифи.

Унинг ижод намуналари  
Ўзбекистон музейлари  
ва картиналар галереяси  
ҳамда Америка, Франция,  
Канада, Хитой, Япония,  
Англия, Германия, Италия,  
Туркия, Швейцария,  
Хиндистан, Корея қаби  
йигирмага яқин мамлакат  
галереясида, шунингдек,  
шахсий коллекцияларда  
сақланмоқда.



рилдим. Волгоград шаҳри атрофидаги ҳарбий қисмда хизмат қилдим. Фаолиятим давомида кўп мақтолвлар эшилдим. Чунки олий маълумотли мутахассис сифатида дивизия штабида «Катта лаборант-техник чизмачи» лавозимида офицерлар билан бир қаторда ўз вазифамни бажардим. Мени ҳарбий хизматни давом эттиришга таклиф қилдилар. Аммо менинг асосий мақсадим расом бўлиши эди.

– Ватанимиз посбонларига тилакларингиз...

– Юртимиз тинчлиги, мамлакатимиз мустақиллиги ҳимоясида турган мард йигитларга ҳавасим келади. Замонавий ҳарбий қуроллар билан таъминланганини, хизмат ва яшаш шароитлари орзу қиладиган даражада эканлигини кўриб, хурсанд бўламан. Элимизинг ишончига муносиб хизмат қилишсин. Бу йўлда уларга метин иродада, куч-куват ҳамда омад тилайман!

**Суҳбатдош  
Абдураззоқ ОБРЎЕВ,  
истеъфодаги подполковник,  
Ўзбекистонда хизмат  
кўрсатган журналист**



сўрарди. Мехнат дарсида қизлар дастрўмол ёки матога гул чизиб беришими илтимос қилишарди. Мен уларга қўлимдан келганча чизиб берардим.

– Сизнинг машҳур рассом бўлиб етишишингизда ким ва нима мұхим роль уйнаган?

– Биз ўқиган пайтларда мактабимизда расм дарси ўқитилмаган. Ўқитувчи ҳам йўқ эди. Олтинчи синфда ўқиб юрганимда синфдошларимдан бири янги келган шаҳарлик адабиёт ўқитувчимизга менинг расм чизиб юришимни айтган экан. Ўқитувчимиз мени доскага чакириб синаб кўрдида, кўллаб-қувватлди, маслаҳатлар берди. Ота-онам йўл узоқ ва ёш бўлганим учун мени Тошкентга юборишмади. Ўқувчилик давримда колхозчи, сувчи, боғбон, тракторчи, киномеханик бўлиб ишлаганман.

11-синфни битирганимдан кейин ҳозирги Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетига «расм, чизмачилик ва меҳнат ўқитувчиси ихтинослиги» бўйича ҳужжат топширдим. Тошкентлик рассомдан иккى ой сабоқ олиб, имтиҳонлардан муваффақиятли ўтдим. Кейинчалик



## # Malaka

**ALISHER NAVOIY**  
**NOMIDAGI TOSHKENT**  
**DAVLAT O'ZBEK TILI VA**  
**ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI DAVLAT**  
**TILIDA ISH YURITISH**  
**ASOSLARINI O'QITISH VA**  
**MALAKASINI OSHIRISH**  
**MARKAZIDA BIR GURUH**  
**HARBIY XIZMATCHILARNING**  
**MALAKASI OSHIRILMOQDA.**



Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Mudofaa va boshqa vazirliliklar, idoralar hamda Fanlar akademiyasining harbiy

atamashunoslik bo'yicha yetuk olim va mutaxassislaridan iborat ishchi guruhi tomonidan zamonaviy harbiy atamalarning davlat tilidagi muqobillarini

ishlab chiqish, ularni iste'molga kiritish va bir xil shaklda qo'llanilishini ta'minlashdan iborat.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimida davlat tilining qo'llanishini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishida bu borada soha mutaxassislarining oldiga bir qancha vazifalar yuklatilgan. Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida qo'llanilayotgan harbiy atamalarni xatlovdan o'tkazish, ularni ma'n-o-mohiyati, kelib chiqish tarixi va lingvistik asoslarini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etish, boy umumturkiy harbiy atamalar tizimini o'rganish shular jumlasidandir.

—Jahondagi ko'plab davlatlarda harbiy atamalarning shakllanishi uchun asos vazifasini o'tagan so'z va birikmalarni

aniqlab, munosiblarini tanlab olish, amalda qo'llanilayotgan harbiy atamalarning davlat tilidagi ilmiy asoslangan muqobillari hamda harbiy xizmatchi (xodim)larning davlat tilidagi murojaat shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash har qachongidan-da dolzarb masala bo'lib turibdi, — deydi markaz direktori Inomjon Azimov. — Shu ma'noda kadrلarning malakasini oshirish barobarida ularga harbiy atamalar etimologiyasi, ularning davlat tilidagi muqobillari bo'yicha ilmiy qo'llanma hamda yagona qomusini tayyorlash, jamoatchilik va kasbiy faoliyat jarayonida davlat tili imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

**Mayor Sherqo'zi HAKIMOV**

## # Huquqiy profilaktika

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**HARBIY PROKURATURASI**  
**TOMONIDAN QUROLLI**  
**KUCHLAR TARKIBIDAGI**  
**VAZIRLIK VA IDORALAR,**  
**ULAR TARKIBIDAGI HARBIY**  
**QISM VA MUASSASALARDA**  
**HUQUQBUZARLIK VA**  
**JINOYATCHILIKNING**  
**OLDINI OLİSH YUZASIDAN**  
**MUNTAZAM RAVISHDA**  
**PROFILAKTIK TADBIRLAR**  
**O'TKAZIB KELINMOQDA.**



Navbatdagi tadbir O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi, Milliy gvardiya qo'mondonligi, Respublika Harbiy sudi hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari tomonidan Milliy gvardiyaning Toshkent shahar boshqarmasida o'tkazildi.

Profilaktik tadbirda Milliy gvardiyaning Toshkent shahar hamda Qo'riqlash boshqarmalari tizimida xizmat qilayotgan rahbar xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda xodimlarda vatanparvarlik va adolat tuy'usini yanada mustahkamlash, har

qanday shakldagi jinoyatlarning oldini olish, korrupsiya holatlari qarshi kurashish, harbiy intizomni mustahkamlash masalalariga asosiy urg'u berildi.

Shuningdek, tadbirda xodimlarning turmush va xizmatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar yechimi yuzasidan batatsil ma'lumotlar berildi.

**Adliya polkovnigi**  
**Sherzod HAYITOVA,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Harbiy prokurorining**  
**katta yordamchisi**

## # O'tmish haqiqatlari

**Мутрибий «Нусхайи зебоий Жаҳонгир» тазкирасини  
Жаҳонгир бин Ақбар бин Ҳумоюн бин Бобур  
подшоҳга бағишилганни учун унда темурийлар  
авлодлари ва улар томонидан қилинган хайрли  
ишлилар, уларнинг адабиёт-маданият тарихида  
қолдирган ёдгорликлари ҳақидаги маълумотларни  
акс эттиради. Мутрибий хабарига қараганда,  
самарқандлик Ҳожи Дўст Мұхаммад Равғангар  
977 ҳижрий (1570) йили Ақбар подшоҳ ҳузурида  
бўлганида унга Улуғбек расадхонаси ҳақида ҳам  
сўзлаб берган.**

«Абдулланома» муаллифининг ёзишича, Амир Қулбобо Кўкалтош Абдуллахон буйруғига биноан 986 йил Рамазон (1578 йил ноябрь) ойидан мазкур китобнинг биринчи мақоласи тугалланаётган 995 (1586–1587) йилгача Самарқандда «буюк амир (Темур) ва унинг авлодларидан қолган ҳамда бузилиш ва вайроналикка юз қўйган иморатларни тузатишга тиришқоқлик кўрсатмоқда» экан. Ҳофиз Таниш Бухорий бу пайтда Улуғбек расадхонасининг бузилгани ҳақида бирон сўз айтмайди, аксинча, бундай иморатлар таъмиранаётганини таъкидлайди. Демак, бу даврларда ҳали расадхона сақланиб турган экан. Бизни қизиқтирган мавзу – расадхонанинг қачон бутунлай бузиб ташлангани хабарини эса «Нусхайи зебоий Жаҳонгир»даги ушбу парча маълумотлари ҳикоя қиласди:

«Шуҳратий Миёнколий. Мулло Боқий Гўримирий нисбаси билан танилган. Беқайдлик хислатидан холи эмас эди. Шунинг учун ҳам ўзига Шуҳратий деб тахаллус қўйган эди. Ҳамиша лаванд (бузуқи) ва хабиса (ярамас хулқли)лар билан ўтириб-ту-

Шуҳратий бу сўзни қабул қилиб, дўстининг пичоғини олиб, ярим тунда шаҳар қалъаси деворидан ошиб тушибди ва расадхона ичига кириб, белги қўйиб чиқиби. Бу манзил ичida Шуҳратийнинг жинларни кўргани воқеасини бир бошдан сўзлаб ўтирасак, анча вақтимизни олади. Лекин шунда жин таъсиридан унинг бир кўзи айбли бўлиб қолган эди.

Фақат угина эмас, балки жуда кўп кишилар бундай довюраклика тиришиб, жонларини зое қилдилар. Шулардан бири Фарҳод хabisa бўлиб, у ҳам бир ўтиришда рақиби билан шарт бойлашиб, кўлида қозик, расадхонанинг шипига фалак табақалари, иқлимлар сурати чизилган хонасига кирибди ва қозикни деворга қоқаётиб, билмасдан, тўнининг этагини ҳам қозикқа қўшиб деворга маҳкамлабди. Табиийки, ўрнидан тураётгандан кимдир этагидан ушлаб тортаётгандек бўлган, у эса зим-зиё қоронфилик ва ярим тунда, кундузи одамлардан эшишиб юрганим жинлар бўлса керак, деб ўйлаган чоғи, шу заҳотиёқ ўтакаси ёрилиб, жойидаёт жон берган.

Аммо таажжубга лойик бир воқеа содир бўлган эди: Султон Саъидхоннинг тўпчибошиси ва биз номини юқорида тилга олган Мир Тулак ўша ўтар тор жойдан отда ўтган ва бир тўн билан мукофотланган эди.

Ҳожибий Отолик Дўрмон (мазкур расадхонағишиларидан) бу бузилган тоқ ёнига яна бир тоқ қурдирди. Лекин бирор вақтдан сўнг сув тошқини рўй бериб, уни таг-туғи билан қўпориб ташлади. Шодмулк Оқо тоқи эса бугунги бир минг ўттиз олтинчи (1036/1627–1628) йилгача ўз охирги ҳолича сақланиб туриди.

Мулло Шуҳратий охирида тавба қилиб, ахли аёллик бўлиб ва Миёнколда дехқончилик ишлари билан шуғулланиб юради. Тўққиз юз етмиш иккинчи (972/1565) йили тарқалган ва кўпчиликнинг ёстигини қуритган вабо қирғинида хотини иккаласи бир кунда ўлиб кетдилар...»

Ҳожибий Отолик Дўрмон ким ўзи? «Абдулланома» муаллифи унинг Дўстий Ҳожи бин Жонвафобий Дўрмоннинг ўғли экани, Абдуллахоннинг Самарқанд, Тошкентни Кўчкчинҳон ва Севинчхожаҳон авлодларидан тортиб олиш ва бошқа қанча урушларда жонбозлик кўрсатганини ёзади.

Мутрибий «Тазкират уш-шуаро»да Ҳожибий Отолик Дўрмонга маҳсус тўхталиб, шундай ёзади:

«Ҳожибий Отолик Дўрмон ўз шеърларида «Ҳожи» тахаллусини қўллайди, аммо асл номи Малик Мұхаммадбий, болалигига отаси билан ҳажга бориб келгани сабабли «Ҳожибий»



арди. Самарқанднинг хожа Холдор деган машҳур бир ўспиринига кўнгил берганди. Баҳор кунларининг бирида шу дўсти билан маст ҳолда Самарқанднинг Байни тоқайни ёнидан ўтиб бораётганида кўрдим. Қарасам, дўсти итининг бўйинбогини ўз бўйнига боғлаб олиди, орқасидан эса хожа Холдор уни ширкорчи итдай олдига солиб, гёв овга кетаётгандек бораёттир. Шуҳратий маст ҳолатида ушбу байти айтмоқда эди. Назм:

Саги ту аз ҳама дар  
олами вафо беҳтар,  
Агар саги ту набошим  
саг зи мо беҳтар.

(Мазмуни: Вафо оламида итингдир барчадин авлороқ, Итинг бўлмасак агар, ит бўлсин биздан аълороқ.)

Шуҳратий ўта довюрак ва кўрқмас одам эди. Бир оқшомги ўтиришда хожа Холдор унга:

— Шуҳратий, шаҳид Султон Улуғбек мирзо расадхонаси ичida жуда кўрқинчли бир жой бор, деб эшитаман. Баъзи довюрак одамлар ўша ергача кириб, белги қўйиб чиқканмиш. Сен ҳам мана шу пичоғимни белги сифатида қўйиб чиқа оласанми? — дебди.



# УЛУГБЕК РАСАДХОНАСИНИ КИМ БУЗДИРГАН?

лақаби билан танилган. Шоирлар ва фозилларга, умуман, барча халойиқа кўп яхшиликлар кўрсатарди. Кўп йиллар жаннатмонанд Самарқанд мулки ҳукуматига мансуб турди. Шаҳид Абдулмӯъмин замонида Ҳирот ҳукуматини бошқарди. Ўша ерда қизилбошлар билан бўлган жангда шаҳидлик шарбатини татиди. Камина баъзида Самарқандда ҳузурларига бориб турар, манави сингари мувашшах ғазал ва қасидаларни ўткариб, кўлларидан от, чакмон, пул ва салла каби инъомлар олардим».

«Нусхайи зебоий Жаҳонгир»нинг бошида Мутрибий Ҳожибий Отолик ҳақида қўйидагиларни ҳам ёзиб ўтган:

«Самарқанд аҳолиси... ҳайит ва Наврӯз байрамлари... шу майдон (Гўри Мир ёнида) йигилар эканлар ва бу одат... Ибодулло сultonати давригача расм бўлди, Ҳожибий Отоликнинг Самарқандда ҳокимлиги замонида эса унинг ҳукмига биноан... бу ерда йигилиш тўхтатиб қўйилди. Сабаби шунда эдики, бу ерга келган оломон одоб деган нарсани унуги, бўшаниш учун ушбу нурга тўла даҳма устига чиқишини одат қилиб олган, бу ёмон қилик мазкур амирни ғазаблантириб, шундай бўйруқ чиқаргандар».

«Абдулланома» маълумотига қараганда, Ҳожибий Отолик Дўрмон Абдуллахоннинг 1572 йил ёзи ва 1578 йил кузидаги Самарқандга, 1579 йил баҳоридаги Тошкентга юришида қатнашади, у бу урушга Балхдан чақирилиб, Тошкент қамалида Балх ва унинг атрофларидан келган Абдуллахонга қарашиб лашкарга қўмондонлик қиласди. Ўша 1579 йил марта Абдуллахон Тошкент ҳокимлигига акаси Дўстум (Абдулқадус) сultonни ўтқазганда, шу вилоятнинг молиявий ва ҳарбий ишларини бошқариш учун Ҳожибийни Дўстум сultonга отолик қилиб тайинлайди.

«Мусахир ил-билод» асарида Самарқанд ҳокими Ибодулло сulton ўлими рўй берган 1585 йил сентябрда Ҳожибий Отоликнинг Самарқанд ҳукуматида девонбеги вазифасини бажараётгани айтилади. Ҳожибий Отоликнинг Самарқандда шу вилоят ҳокимлигига тайинланиши, афтидан, 1585 йил охирида рўй берган.

«Нусхайи зебоий Жаҳонгир» маълумотларига мурожаат қилиб, амир Ҳожибий Отолик ҳаёти сўнгига яна бир бор назар ташлаймиз:

«Дўст Вафобий Отолик Дўрмоннинг чиройли зикри. Амир ул-умаро Ҳожибий Отоликнинг етук ўғли. Отасининг улуғворлиги Абдуллахон замони (1561–1598 йилларда) қўёшдек равшан эди. Йигирма беш йил Самарқанд ҳокимлиги мансабига мансуб туриб, адолат билан иш юргизди. Фозилларга тарбиятлар кўргазгувчи ва заифларни ҳимоят қилгувчи бўлиб, Самарқанд унинг ҳукумати айёмида Мовароуннаҳр

шахарларининг рашкини келтирадиган жойга айланганди. Абдулмӯъминхон замонида (1598 йил) Балх вилояти ҳокимлиги мансабига ҳам мансуб турди. Сўнг шу хон замонида Дор ус-салтана Ҳирот ҳукуматини бошқариш даражасигача кўтарилиди. Абдулмӯъминхон ўлдирилгач (1598 йил август ойи боши), Шоҳ Аббоснинг шу шахарни истило қилиш пайтидаги жангда ўша вилоятда Динмуҳаммадхон бин Жонихон (аштархоний) билан бирга шаҳид бўлган... Ўғли ушбу 1035 (1627) йили... Бадаҳшон вилоятининг Қундуз туманида ҳукумат мансабида ўтирибди».

Демак, Ҳожибий Отолик Улуғбек расадхонасини 1588–1598 йиллар орасида, аниқроғи, 1590–1592 йиллари буздирган.

Самарқанд шахри ободончилиги учун шунча ишлар қилган ва шоири олимларга ҳомий бўлган, ўзи ҳам гўзал ғазаллар ёзиб, номи ва отаси номи тазкираларга тушган амир Ҳожибий Отолик омий одамларнинг ножӯя қиликларига жаҳл қилмасдан расадхонани буздирмай сақлаши мумкиниди?

Тўғри, Ҳасанхонжа Нисорий ёзганидек, Улуғбек мирзо ва унинг устозу шогирдлари вафотидан сўнг «ҳеч ким расад боғламоққа муваффақ бўлмаган» ва Мутрибий гувоҳлик беришича, ҳақиқатан ҳам расадхона хароба бир жойга айлануб қолиб, ундан фойдалана олмаганлар. Бундай қараганда, Ҳожибий Отолик масала-нинг айнан шу томонларини ўйлаб иш кўргандек. Яна савол туғилади: ахир, барибир, ўша 1588–1592 йилларгача, яъни 150 йил мобайнинда расадхона бузилмай турган-ку! Бу давр оралиғида Самарқандда темурийлардан ташқари ҳар хил — гоҳ оқил, гоҳ инжиқтабиат шайбонийлар ҳам ҳокимлик қилган-ку? Аммо улар ҳам расадхонани буздирмаганлар. Бу ҳақда бош хон Абдуллахоннинг ҳам буйруғи бўлмаганини юқорида кўрдик, бор бўлса, Ҳофиз Таниш Бухорий ва Мутрибий бирор баҳона билан ўзган бўлардилар. Демак, Ҳожибий Отоликнинг бу ишини ҳеч ҳам оқлаб бўлмайди. Ахир кўприк таъмири шу гиштларга қараб қолганиди? Нима, Улуғбек мирzonинг аччиқ қисматига ўхшаб, бу ҳам бир тақдирнинг илм-фан, маданият ахлига берган оғир зарбаси ва қаттиқ синовими? Ёки Беруний бобомиз минг йил олдин бутун бир рисолани бағишилган Бомиён тогидаги Будда ҳайкалининг жоҳииллар томонидан яксон этилиши каби башариятни огоҳлантиришими? Билмадим, аммо ҳар ҳолда, расадхона сақланиб қолгандан, ушбу мустақил замонамизда бизга яна бир бор ифтихор ва илҳом туйғусини бағишилаши шубҳасиз эди.

**Исмоил БЕКЖОН,  
шарқшунос**

## # Marafon



Nihoyat, "G'alaba bog'i" hududida "Men g'olib" shiori ostidagi sport marafoniga start berildi. Ishtirokchilar Qoraqamish 4-tor va Qoraqamish 2-tor, Kichik halqa yo'li, Sag'bon, Oltinsoy, Dilsaroy ko'chalari orqali yana "G'alaba bog'i" dagi finishgacha bo'lgan masofani shijoat bilan bosib o'tishdi.

Mazkur marafon aholi o'tasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yosh avlod vakillarini vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash hamda ularni ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida tashkil etildi.

Yurt posbonlari Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib, belgilangan masofani qalblarida bir olam quvonch-u ishtiyoyq bilan bosib o'tishdi. Bu esa poytaxtimiz ko'chalariga

bayramona kayfiyat olib kirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, harbiy xizmatchilar o'tasidagi marafonda 1- va 3-o'rinni Mudofaa vazirligi sharafini himoya qilgan Markaziy harbiy okrug harbiy xizmatchilari leytenant Nuriddin Rahmatov (1-o'rinn) va III darajali serjant Ilhom Nazarov (3-o'rinn) egallagan bo'lsa, 2-o'rinni Davlat xavfsizlik xizmati vakiliga nasib etdi.

Jismoniy imkoniyat, kuch va iroda mustahkamligini chin ma'noda sinovdan o'tkazish imkonini bergen mazkur marafonda oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari orasidan ham g'oliblar aniqlandi. Unga ko'ra, 3-o'rinni Ichki ishlar akademiyasi, 2-o'rinni O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti hamda 1-o'rinni Qurolli Kuchlar akademiyasi sharafini himoya qilgan kursantlar qo'iga kiritdi.

Umumjamoa hisobida 3-o'rinni Prezident Davlat xavfsizlik xizmati jamoasi, 2-o'rinni Davlat xavfsizlik xizmati vakillari egallashdi. Sport marafonining mutlaq g'olib sifatida

Mudofaa vazirligi jamoasi e'tirof etildi.

Marafon so'ngida g'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan medal, maxsus kubok hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

**Leytenant Shohrux SAIDOV**

## # Namunali ҳарбиylar oillası

Оилада ота ибрати, она меҳри, бобо ва бувилар ўғити орқали ёш авлод қалбидаги миллий қадриятларимизга бўлган ишонч, муҳаббат, эътиқод шаклланади. Зоро, иқтисодий жиҳатдан фаровон, ижтимоий-ахлоқий ва ғоявий муҳити соғлом оила негизида юзага келган жамиятнинг пойдевори мустаҳкам бўлади. Аслида оила баҳтига эришиш – ҳар бир инсоннинг орзуси. Бунинг учун эса хонадонда тинчлик-тотувлик, эр-хотин ўртасида ўзаро ҳурмат бўлса кифоя. Ана шундагина оилаларда баҳтиёрлик, шодлик ҳукм суради, фарзандлар баркамол бўлиб вояга етади. Мудофаа вазирлиги тизимида ҳар йили анъанавий равишда ўтказиб келинаётган «Намунали ҳарбиylар оиласи» кўрик-танловидан кўзланган мақсад ҳам ана шундай ибратли ҳарбий оилаларни юзага чиқариш, улар ўртасида миллий урф-одатлар, қадриятлар ва соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, бир сўз билан айтганда, ҳар томонлама ўrnak олишга арзигулик ҳарбий оилалар сафини кенгайтиришдан иборатdir.



Кўрик-танлов қамрови йилдан ийла кенгаймоқда, мукаммаллашмоқда ва энг муҳими, юзлаб ибратли оилаларни юзага чиқармоқда. Жорий йилда ҳам барча округларда беллашувлар қизғин кечди. Муросасиз баҳслар, қизиқарли чиқишлилар – ҳарбий оила аъзоларининг билими, маънавияти, иқтидори қанчалик юксак эканидан далолат берди. Ниҳоят, саралар ичра энг саралар танловнинг республика босқичида юз кўриши. Беллашувнинг мазкур якуний босқичи Тошкент вилоятининг пурвиқор тоғлари билан бўйлашган ҳарбий қисмлардан бирида бўлиб ўтди.

Миллий анъана ва қадриятларимиз руҳи акс этган беллашувда иштирок этган ҳар бир оила ўз чиқишлилари орқали бошқаларга намуна бўладиган жиҳатларини намойиш қилишиб. Оила маънавияти, маданиятини энг гўзал кўринишларда ифода этиб, унинг инсон ҳаётидаги ўрни ва аҳамиятини юксак санъаткорлик маҳорати ила кўрсатиб беришиб. Республикализнинг турли худудларидан келган

**ОИЛАМ – МЕНИНГ БАХТИМ**

Танловнинг биринчи шарти шундай номланди. Мазкур шартда иштирокчи оилалар ўзларини шеърий тарзда танишишилари ва унда ҳар бир оила аъзоси иштирок этиши лозим эди. Эътирофга сазовор жиҳати, иштирокчилар шартни аъло даражада уddyалади. Улар ўз чиқишлиларини нафақат шеър, балки қўшиқ ва рақслар билан бойитгани ҳакамлар ҳайъатининг-да эътиборидан четда қолмади.

еттига иштирокчи оила илк шартда ёқ томошабинларга кўтаринки кайфи-

ят улашиди. Шеър, қўшиқ айтиш ва саҳнада роль ижро этиш бобида ҳатто профессионаллар билан беллашадиган ота-оналар, фарзандларнинг қобилиятига, истеъодига таҳсин айтасиз. Ҳа, ҳарбий оилалarda ana шундай иқтидорли ижодкорлар бор. Айтишиди-ку «Иқтидор – ҳар бир инсонда мужассам бўлган яширин қобилияят. уни юзага чиқара олиш эса санъатdir». «Намунали ҳарбиylар оиласи» кўрик-танлови инсонлардаги мана шундай фазилатларни юзага чиқараётгани билан ҳам аҳамиятли. Танловни Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси ва Касаба ўюшмалари федерацияси каби нуфузли давлат ташкилотлари вакилларидан иборат ҳакамлар ҳайъати баҳолаб борди.

# БАХТ ВА САОДАТ

**«МЕН УДДАБУРОН ОИЛА БЕКАСИМАН»**

**ФАРЗАНДИМ – ДИЛБАНДИМ**

Фарзандларимиз – эртанги куни-миз эгалари. Улар тимсолида Ватаннинг қудрати намоён бўлиши, бежиз эмас. Беллашувда иштирок этган ҳарбий оила фарзандлари – Санжарбек, Фотима ва Зухра, Абдулализ, Мехрангиз, Фарзона, Аслидин, Ахлидин, Мубина, Отажон, Эъзоза, Кумушой, Лолаҳон, Фарангиз, Сайдбек, Дилёр, Муҳаммадазизларнинг чиқишлиарини кузатиб, буюк келажакка бўлган ишончимиз янайам орди. Ҳа, уларнинг ҳар бири ҳақида соатлаб сўзлашим мумкин. Инглиз тилида равон сўзлайдиган Фотима ва Зухра, спортчи Санжарбек ва Абдулализ (*I даражали сержант Сарвар Эргашевнинг фарзандлари*), жажжи рақкоса Мехрангиз, кичкина бўлса-да, шу кунгача бадиий гимнастикада қатор ютуқларни кўлга киритган Фарзона (*кичик сержант Бахшулло Файзуллаевнинг фарзандлари*), чолғу асбобларини моҳирлик билан ҷаладиган Сайдбек (*II даражали сержант Дониёр Дадажоновнинг фарзанди*) ва Жасурбек (*кичик сержант Жаҳонгир Ҳасановнинг фарзанди*), спортчи Аслидин (*II даражали сержант Олимжон Мусаевнинг фарзанди*), нотиқлик ва актёrlикни маромиғат етказиб кўпчиликнинг олқишини





олган Отажон (майор Аъзам Бердиевнинг фарзанди), Қоракўл халқаро математика мактабининг аълочи ўқувчisi Кумушой, келажакда раққоса бўлишни ният қилган Лолаҳон, курашчи Фарангиз (кичик сержант Нодир Эргашевнинг фарзандлари)...

Ёшларга давлатимиз томонидан бериллаётган имтиёз ва кўрсатилаётган эътибор ва ғамхўрикдан унумли фойдаланаётган бу ўғил-қизлар – Ватанимиз эртаси! Ҳарбий оиласда мана шундай билимли ва искеъододи фарзандларнинг камол топаётгани кўксимизни ёруғ хисларга тўлдиради.

#### МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТАРАННУМИ

Энг қизиқарли шартлардан бири – тўртинчи шарт бўлди. Унда иштирокчи

ларнинг олқишига сазовор бўлди.

#### ТАҚДИРЛАШ МАРОСИМИ

Қизиқарли ўтган беллашувларни томоша қилиб, вақт қандай ўтгани сезилмади. Ниҳоят голиблар аниқланди. Унга кўра, 1-ўринни кичик сержант Нодир Эргашевлар оиласи қўлга киритди. 2-ўрин II даражали сержант Олимжон Мусаевлар оиласига насиб қилган бўлса, 3-ўринни майор Аъзам Бердиевлар оиласи



# МАСКАНӢ



оиласалар оила бошлиғи ҳарбий бурчини бажараётган вилоятнинг урф-одатларини тараннум қилувчи мусиқали композицияни йиғилганлар эътиборига ҳавола қилишди. Бир-бираидан қизиқарли ва тақрорланмас чиқишлилар, кўй-кўшиқ ва рақслар ижро этилди. Энг муҳими, оиласалар ушбу шартни бажаришда нафақат кийиниш услуби билан, балки шевага хос сўзлашувни маҳомига етказгани билан ҳам томошабин-

эгаллади. Голиблар Мудофаа вазирлиги ва ҳамкор ташкилотлар томонидан диплом, пул мукофоти ва қимматбаҳо совғалар билан тақдирланди.

#### ОШ ФЕСТИВАЛИ

Ушбу кун ҳарбий оиласалар учун ҳақиқий байрам бўлди.

Кўрик-танлов ниҳоясига етгач, ҳамма иштирокчилар ва тадбир меҳмонлари автобусларга чиқиб, Мудофаа вазирлигига қарашли «Тонг» болалар соғломлаштириш оромгохига қараб йўл олди. Бу ерда ҳарбий оиласалар уртасида ош фестивали ўтказилди. Танловга ҳакамлик қилишдек масъулиятли вазифа эса муддатли ҳарбий хизматчиларга топширилди. Энг кўп

овоз олган ошпазлар қимматбаҳо совғалар билан тақдирланди.

Байрамнинг кечки тадбирлари гулхан атрофида давом этди. Ҳарбий санъаткорлар ижросидаги куй-кўшиклилар, рақслар кечага ўзгача файз бағишилади.

**Майор  
Гулнора ҲОЖИМУРОДОВА**

# Bu qızıq!

Күп асрлардан буён амазонкалар ҳақидағы ривоят ва афсоналар одамларни қызықтириб келади. Турли даврларда амазонкалар ҳақидағы манбалар тұғри-нотұғри маълумотлар билан тұлдирилган, айримлари эса жуда бүрттириб юборилған. Бугунги кунга қадар амазонкалар күплаб фильмдар, адабий ва фантастик асарлар қаҳрамонларига айланиб улгуршынан.

Чунки аёллар учун амазонкалар – әркінлик ва мустақиллік рамзи бўлса, әрқаклар уларни гўзаллик ва жозибадорлик тимсоли сифатида эътироф этишади.

Аввало, «амазонка» атамасининг келиб чиқиши ҳақида тұхталиб ўтсак. Мазкур атаманинг пайдо бўлиши тұғрисидаги турли манбалар бўлиб, бу борада ҳатто олимлар ўртасида ҳам баҳс-муноザаралар мавжуд. Баъзи манбаларда бу сўз қадимги форсча «ha-mazan», яъни «жангчи аёл» маъносининг билдирилиши айтилса, бошқа тахминларга кўра, «амазонка» сўзи «a masso», яъни «дахл қилинмаган» (әрқаклар томонидан) маъносида келиши таъкидланади.

Яна бир манбада «amazos» – «бир кўкраги йўқ» деган тахмин ҳам илгари суриласди. Бунга сабаб амазонкалар жангда ва камондан фойдаланганда халал бермаслиги учун вояж етаётган ёш амazonканинг ўнг кўкраги чўғда кўйдирилған. Бироқ мазкур талқин бироз гумонли бўлиши мумкин. Сабаби, шу кунга қадар амазонкалар сиймоси тасвирланган санъат асарларида бирорта ҳам бундай тасвир учрамаган. Айрим манбаларда эса жангчи аёлларнинг «амазонка» деб номланиши кейинги даврлар, хусусан, Жанубий Америка худудлари билан боғлиқ эканлиги таъкидланади.

Афсоналарга кўра, амазонкалар Фермодонт ва Ирис дарёлари яқинида, Қора дengизнинг бўйларида яшашган. Тарихчى А.Б. Снисаренконинг таъкидлашича, уларнинг энг аввал яшаган жойлари Туркияning Амасия (эхтимол, бу вилоятнинг номи қабиланинг амазонкалар дея номланишига сабаб бўлгандир) ва Самсун вилоятлари худудларига тўғри келади. Худди шу ердан амазонкалар Кичик Киви Осиёга худудларига ўзларининг юришларини бошлаганлар. Айнан улар томонидан Эфес, Смирна ва бошқа шаҳарлар барпо этилган.

Професор И.Е. Суриков амазонкаларнинг эллинлар ерларидан дунё бўйлаб тарқалиб борганинг таъкидласа, тарих фанлари доктори М.В. Скржинская амазонкаларнинг кийиниши маданиятидаги такомиллашув ҳақида маълумотлар беради.

Гомер асарларида амазонкаларнинг Беллерофонт ва фригиялар билан олиб борган жанглари тасвирланади. Амазонкалар қабиласининг сардори Ипполита (бошқа манбаларда – Анти-

# АМАЗОНКАЛАР – ЖАНГЧИ АЁЛЛАР АФСОНАСИ



ола) ҳукмдор Европейнинг буйруғига кўра, юон пахлавони Геракл томонидан ўлдирилади.

Плутархнинг «Хаётай ёзишмалар» ида эса амазонкаларнинг Юноистоннинг Атика вилояти ҳукмдори Тесей устига юришлари тұғрисида ҳикоя қилинади. Унда амазонкалар Киммерий Босфоридан сузиг ўтишида ва Тесей билан тұрт ой давомида муваффакиятсиз жанглар олиб боради. Шундан сўнг яна ўз ватанларига қайтиб кетишлари тасвирланган.

Қиролича Пентесиляенинг ҳукмронлиги даврида амазонкалар юонларга қарши Троя подшоси Приам билан иттифоқ тузади ва бу шаҳар-давлатни ҳимоя қиласи.

Қадимги юон солномачиси Диодорининг ёзишича, амазонкалар ҳарбий санъат борасида әрқаклардан асло колишмаган. Уларнинг жамиятияда әрқаклар рўзгор ишлари билан банд бўлиб, хотинлари измида бўлишган. Фарзандлар тарбияси ҳам әрқаклар зиммасида бўлган. Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, амазонкалар Троя урушларида қатнашиб, киммерийлар (Крим яримороли ва унга яқин худудларда яшаган кўчманчи қабила) билан Кичик Осиёга ва Қадимги Юноистон худудидаги Атика давлатига юришлар қилиб, Афина шаҳрини ҳам ишғол қилишган.

Афсона, ривоят, солнома ва турли тарихий манбаларда тилга олинган жангчи аёллар – амазонкаларнинг ҳақиқатда ҳам мавжуд бўлганилиги масаласи ҳам мунозарали. Кўплаб тарихчилар улар одамлар томонидан тўқиб чиқарилган ривоят қаҳрамонлари дейилса, айрим тарихчилар улар ҳақидағы ёзма манбаларга таяниб, улар ҳақиқатдан ҳам мавжуд бўлған, деган фикрни илгари сурди ҳамда сўнгги жангчи амазонкалар Александр Македонский ҳукмронлиги даврига тўғри келишини таъкидлайдилар.

Амазонкалар яшаган, дега тахмин қилинадиган худудлардан бири – ҳозирги Украинада 1971 йилда олиб борилган археологик тадқиқотларда камон, ўқлар ва қалқонлар билан дағн этилган аёлларнинг сүяқ қолдиқлари топилади. Бироқ бу худудлардан амазонкаларнинг асосий жанг қороллари ҳисобланган қилич ва жанг ойболталари топилмаган.

Шунингдек, 1993–1997 йилларда Қозогистон худудларida олиб борилган қазишмалар чоғида қорол-аслаҳалар билан дағн этилган жангчи аёлларнинг кўплаб қабрлари топилган. Үрганишлар натижасида мазкур археологик топилмаларнинг ёши 2,5 минг йилдан кам эмаслиги аниқланган.

Тарихчى Геродотнинг ёзишича, Троя урушлари пайтида мағлубиятга учраган ва асирга олинган амазонкаларни юонлар учта кемага жойлаб, ўз юртларига олиб кетишга қарор қиласи-

лар. Аммо амазонкалар йўлда кўзғолон кўтариб, юон пахлавони Геракл томонидан ўлдирилади. Қора дengиз бўйларида скифлар ери бўлган Кремна шаҳрига етиб келадилар ва шу ерда мұқим қоладилар. Бу ерда жангчи аёллар маҳаллий ҳалқнинг отлари, қурол-яроғларини қўлга киритиб, уларнинг ерларини талай бoshлайдилар. Скифлар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан курашиши ўзларига эп кўрмаган скифлар файриоддий кийинадиган, бошқача тилда сўзлашадиган жангчи аёллар қабиласига маълум худудларини ташлаб кетишади. Бироқ амазонкалар талончилар билан жанг қилмоқчи бўлганиларда уларнинг барчаси аёллар эканлиги аён бўлади. Аёллар билан ку

## # Qutlov

## QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHGA QO'SHILGAN MUNOSIB HISSA

O'zbekiston Respublikasi sud faxriysi, ustoz va samimiy inson Tursunov Savronbek Akramovich 70 yoshda.



1952-yil 15-may kuni ziyolilar oиласида туг'ilган Savronbek aka o'zining mehnat faoliyatini 1968–1970-yillarda Jizzax viloyati Forish tumani 11-umumta'lim mактабининг kashshoflar yetakchisi sifatida boshlagan. Keyinchalik ushbu mактабда laborant, 1970–1971-yillarda 28-umumta'lim mактабida o'qituvchi bo'lib ishlagan.

1971–1976-yillarda Toshkent Davlat universiteti talabasi bo'lganidan so'ng huquqshunoslik kasbini egallab, 1976–1977-yillarda Jizzax tumani prokururasida ish o'rganuvchi, Jizzax viloyat prokururasi tergov bo'limining prokurori, Jizzax tumani prokurorining yordamchisi, Jizzax viloyat sudining sudyasi, Jizzax viloyatining G'allaorol tuman sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi, Jizzax viloyat sudining raisi, Samarqand viloyat sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining o'rinnbosari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi kabi mas'uliyatlari lavozimlarda samarali faoliyat ko'rsatgan Savronbek Akramovich qonun ustuvorligi va odil sudlovnii ta'minlashda uzoq yillar o'zining munosib hissasini qo'shish bilan birga, huquqshunoslari, sudyalar va sud xodimlari orasida ko'plab shogirdlarni kamolga yetkazadi. Farzandlari ham uning izidan borib, huquqshunoslik kasbini davom ettirishmoqda.

O'z xizmati davomida S. Tursunov Mustaqilligimizning 15, 20 yilligi ko'krak nishonlari sohibi. Yaqindagina Savronbek aka Sudalar Oliy Kengashining qarori bilan "Sud faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ayni paytda S. Tursunov bir etak nabiralar ardog'iда pensiya nashidasini surib, ibratli oila rahbari sifatida ko'pchilikka o'rnak bo'lib kelmoqda.

Hurmatli ustoz, qutlug' 70 yosh muborak, umringiz uzoq va bundan-da zavqli bo'lsin!

O'zbekiston Harbiy sudlari jamoasi

## # Sayyor qabul

## MUROJAATLAR IJOBİY HAL ETİLDİ



**Qarshi harbiy prokurururası tashabbusi bilan Shahrabsabz tumanidagi 1-sonli kasb-hunar mактабida qator mutasaddi idora vakillari ishtirokida omnaviy sayyor qabul tashkil etildi.**

Qabulda Shahrabsabz shahridagi barcha harbiy qism va muassasalar, shuningdek, viloyat mudofaa ishlari, Favqulodda vaziyatlar va Milliy gvardiya qo'riqlash boshqarmalarining bo'limlari, harbiy xizmatchilar, ishchixizmatchilar va aholi vakillari ishtirok etdi. Tadbiriga tashrif buyurgan jami 60 dan ortiq ishtirokchi o'z muammo va takliflari bilan qatnashishdi.

Sayyor qabulda jami 18 ta murojaat qabul qilinib, ularning 5 tasi qanoatlantirilgan, 7 tasi nazoratga olingan holda boshqa tashkilotlarga yo'naltirilgan hamda 14 ta murojaat bo'yicha tushuntirishlar berilgan bo'lsa, qolgan murojaatchilarga qabul doirasida tashkil etilgan "Huquqiy yordam" ko'rsatish jarayonida amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq, yuridik maslahatlar, huquqiy tushunchalar va tavsiyalar berildi.

Xususan, fuqaro Shahrabsabz shahri Matonat mahallasida yashovchi Ulug'bek Mahmudovning zaxiradagi leytenant ekanligini tasdiqlovchi harbiy guvohnomasini olishda amaliy yordam ko'rsatishni so'rab yo'llagan murojaati shu joyning o'zida tuman mudofaa ishlari bo'limi orqali ijobji hal etildi.


O'tkazilgan sayyor qabulda harbiy xizmatchilar, shuningdek, tumanda istiqomat qiluvchi boshqa fuqarolarning ijtimoiy muammolari o'rganilib, ularni ijobji hal qilishga alohida e'tibor qaratildi.

**Adliya kapitani Rustam SOBIROV,  
Qarshi harbiy prokurorining  
katta yordamchisi**

## # Uchrashuv

## MILLIY ARMIYAMIZ YOSHLAR NIGOHIRIDA

**Zangiota tumanidagi 40-umumta'lim mактabi o'quvchilari ishtirokida "Milliy armiyamiz yoshlari nigohida" shiori ostida rahbar va yoshlari uchrashuvi o'tkazildi.**



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ilgari surilgan besh muhim tashabbus ijrosini ta'minlash va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish tadbirning asosiy maqsadlaridan biri bo'ldi.

**Adliya podpolkovnigi Nodir IBRAGIMOV,  
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi**

Unda Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi adliya podpolkovnigi Alisher Qurbonov, Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, O'zbekiston yoshlari ittifoqi tuman Kengashi, ma'naviyat bo'limi vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda yoshlarning kayfiyatini ko'tarish maqsadida "Impuls" harbiy ansambl tomonidan yurtni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

## # Jahon adabiyoti

Андрэ Моруа (1885–1967)

Асл исм-шарифи Эмиль Эрзог бўлган француз ёзувчиси Андрэ Моруа адабий-танқидий эссеидари, тарихий шахслар ҳақидаги китоб ва хотиралари билан машхур. Моруа бу асарларида машхур кишилар ҳаёти ва ижтимоий фаолияти тафсилотларидан четта чиқмаган ҳолда улар ҳақида бадиийлаштирилган хужжатли роман ёзиш мумкинлигини исботлав берди. У ўз қаҳрамонларига бўлган меҳрли муносаватини ифодалаш орқали адабиётнинг инсонсеварлик мөхиятининг теранлашишига хисса қўши.

Адивнинг «Чоршанба бинафшалари» туркумидаги ҳикоялари ўзбек тилига таржима қилингандан.



Ҳаво шунақаям яхши эдики... назариди, ҳеч қачон офтоб бунчалар чаракламагандек... Элен ширин хаёллар билан дастурхон тузашга тушди.

«Қизил катак оқ дастурхони ёзаман. Тўйимиздан кейинги илк бор ёзган дастурхонимиз шу. Пушти ликопчаларнинг гуллари Ренога жуда ёқарди... Бир шиша мусаллас ва гуллар кўяман. Ахир у столда гул бўлишини қанчалар яхши кўтарди: «Гулларни ҳаммадан ҳам чиройли дасталайсан», дерди тақрор-тақрор».

Элен уч хил гул: оқ мойчечак, кизил лола, бинафшани дасталади, шинамгина безатилган хонани ўзи узоқ томоша килди.

Ростданам ҳамма нарса жойида эди.

Не-не баҳтиқароликларга дучор бўлган Рено шунча жудоликдан кейин ўй-жойи ва хотинини ўша-ўшалигича кўриб, қувониб кетса керак... Деразанинг бу томонидан туриб, Элен катта тошойнага қаради. Озгина озганини айтмаса, ўзи ҳам деярли ўзгармабди. У баҳтиёрликдан гангид қолаётганини хис қиласарди...

«Етар! – деди ўзига ўзи, – тезроқ бора қолай... Соат неча бўлдийкин? Вой, тўққиздан ошибди-ку! Бу ишлар ўйлаганимдан кўра кўпроқ вақтимни олибди-да. Поезд соат ўн иккilarда келади, деганди оқсоқол. Мен ундан аввал қайтаман». Сўнг уйдан шошилинч чиқиб кетди.

Леймарилар ўйи қишлоқ чеккасида бўлгани учун ҳам кўзлачи чақнок, ориқ аскарнинг боғ томон ўтганини ҳеч ким кўрмади. У чараклаган офтобу хушбахтиқдан, асаларининг фўнғиллашидан гулларга мафтун боқиб, бир муддат мастона туриб қолди. Кейин оҳистагина чақириди:

– Элен!

Ҳеч ким жавоб бермади. У яна бир неча бор: «Элен! Элен!» деб чақириди. Жавоб бўлмагач, хаёли қочиб, дераза ёнига борди: икки киши учун тузалган дастурхон, гул ва мусалласни кўриб юраги гупиллаб уриб кетди. У бир муддат деворга суюниб қолди.

«Ё Раббим! Хотиним ёлғиз эмас экан!» ўйлади Рено.

Бир соатдан кейин Элен қайтиб келганида қўшниси унга:

– Ренони кўрдим, у чопиб кетаётган экан. Шунча чақирысан ҳам қайрилиб қарамади, – деди.

– Чопиб кетаётувди, дейсизми? Қайси томонга кетаётувди?

– Тевъер вокзали тарафга.

Элен аввал оқсоқолнига юргурди, у ҳеч нарсадан хабарсиз экан.

– Жуда қўрқяпман, шундай қўрқяпманки, оқсоқол жаноблари. Унинг феъли тор, жуда рашкчи. Икки кишилик дастурхон тузалганини кўриб... Узини кутаётганини билмаган. Ҳозирнинг ўзидаёқ уни топиш керак, оқсоқол жаноблари, топиш керак! У энди бутунлай қайтиб келмаслиги мумкин. Мен уни шундай севамкамни!

Оқсоқол вокзалга велосипедчи юборди, полициячиларни огоҳлантириди, аммо Рено Леймари гойб бўлганди. Элен иссикдан сўлигиган гуллар ва тузалган дастурхон ёнида туни билан тузтрай тонг ортириди.

Орадан бир кун, бир ҳафта, бир ой ҳам ўтди. Бу баҳтсиз кундан сўнг яна қанча йиллар ҳам ўтди, эридан ҳамон дарак ўйк...

Рено ўқигач, қайтиб келар, деган умидда шу ҳикояни ёздим.

Бу воқеа француз асиirlарини Германиядан – тутқунликдан олиб қайтаётган поездда бошланганди. Ўн кишилик купеда ўн икки киши тиқилишган. Улар үйлари, оилаларини кўриш имкони туғилганидан фойт ҳаяжонда. Деярли ҳаммаларининг ҳам фикру ҳаёлинни, энг аввало, рафиқалари банд этган. Айримларининг кўнглида умид учқунлари чақнар, баъзилари эса хавотирланиб ўйларди: «Рафиқам аввалгидай вафодор ва содиқмикин? Узундан-узоқ танҳолик йилларида қандай ўзгаришлар рўй берди экан? У билан ҳаётни давом эттириш мумкин бўлармикин?»

Бола-чақалилар, ҳар ҳолда, анча хотиржам. Уларнинг рафиқалари бола тарбияси билан кун ўтказгандир. Бу учрашув ўнғайсизлиги болалар қувончи туфайли енгил кўчса, ажабмас...

Купенинг бир бурчагида баланд бўйли, қотмадан келган, кўзлари чақнок, француздан кўра кўпроқ испанга ўхшаш киши ўтиради. Узини Рено Леймари деб таништирган бу одам шардайлик бўлиб, Перигорда яшарди. Тун оғушида илгарилаётган поезднинг бир маромадаги тарақа-турӯқини паровоз гудоги бўлиб турар, Рено эса рўпарасидаги ҳамрохи билан гаплашиб борарди.

– Сатурнен, ўйланганимсан?

– Бўлмасам-чи! Урушдан икки йил аввал ўйланганимсан, икки болам бор эди. Хотинимнинг исми Марта. Суратини кўрсатами?

Паст бўйли, юзи чандик, аммо қувноқ Сатурнен ички чўнтағидан титилиб кетган катмончани олиб, йиртиқ бир сурат чиқарди-да, ифтихор билан Ренога узатди...

– Ў, жуда чиройли экан, – деди Леймари. – Шундок гўзалнинг олдига ҳеч хавотирланмасдан қайтяпсанми?

– Нега хавотирланай?

– Чунки хотининг жуда чиройли, шунча вақт ўзи ёлғиз қолди, атрофида эса бошқа эркаклар бор... – деди Леймари.

– Кулгимни қистатяпсан! Менинг Мартам шундайни... манаман деган йигитга ҳам қарамайди. Биз шундай баҳтиёр эдикки... Беш йил мобайнида менга ёзган хатларини кўрганингда борми?

– Э-э... бу хатлар! Мен ҳам шунақа илиқ хатлардан озмунчасини олдимми! Аммо, барибир, ташвишдаман.

– Қизик, хотинингга ишонмайсанми?

– Ишонишига ишонаманку-я, тўғриғори, ишонардим. Олти йил бирга яшаб, сираям «сен-менга» бормаганимиз.

– Хўш?

– Э, оғайни, бу – одамнинг табиатига боғлиқ... Мен боқибемликка ишонмайдиган одамлар тоифасиданман. Ўзимга ўзим доимо: «Эленинг тенги эмасман, у гўзал, жуда ақлли, одобли», деб келганман. Ростданам хотиним жуда билимдон, кўлидан келмайдиган иш ўйк. Ҳар қанақа матодан шундайин кўйлак тикадики, ҳамманинг ҳаваси келади. Оддий кул-

бани жиҳозлашга киришса борми, нақ жаннат қилиб юборади... Шуларни ўйлаб туриб, ўзимга ўзим шундай дейман: ахир юртимизда келгинидилар қанча йил изғиб қишиди. Улар орасида мэндан кўра истараси иссиқроқлари бўлгандир... Қишлоқнинг ёнг гўзал аёли – Элен шулар ётиборини ўзига жалб этмадимикин?..

– Нима бўпти? Агар у сени севса...

– Шундайку-я, оғайни, беш йил ёлғизликни тасаввур қила оласанми? Элен Шардайда мусоғир. Шардай менинг юртим, унинг бу ерда ҳеч кими ўйк. Шундай бўлгач, йўлдан тойиши ҳеч гап эмас-да...

– Э-э, жуда ғалат экансан-ку, эсинг жойидами ўзи? Хўп, бирор нарса юз берди ҳам дейлик. Ҳаётда нималар бўлмаяти, ахир! Менга қара, агар бирор кимса: «Сенинг Мартанг...» деб оғиз очиши билан мен унга: «Оғзингни юм. Хотин менини, буни уруш дейдилар; у ёлғиз эди; энди эса тинчлик. Биз ҳаётни қайтадан бошлаймиз», деган бўлардим.

– Мен сендақа эмасман-да, – деди Леймари. – Агар қайтганимдан кейин бирор нарса сезсан борми...

– Унда нима қиласан, хотинингни ўлдирасанми?! Тентак экансан-ку!

– Ўйк, унга қўлимни ҳам теккимайман. Ҳатто бир оғиз гапирмайман. Аммо ўша заҳотиёқ гойиб бўламан. Узокларга кетиб қоламан, исмимни ўзгартириб яшайман. Ўй-жой, ҳаммасини унга қолдириб кетаман. Менга ҳеч нарса керак эмас, қўлимда ҳунарим бор... Ҳаётимни тамомила ўзгартириб юбораман. Билмадим, бу балки, телбалиқидир, аммо табиатим шундай. Менга бахт бутун бўлса, ёинки...

Поезд ўзок гудок чалиб, рельсларни шарақлатиб вокзалга кириб келди. Икки сухбатдош жим бўлиб қолиши.

Шардай оқсоқоли қишлоқ ўқитувчиси эди. У жуда кўнгилчан ва эҳтиёткор одам. Рено Леймари поездда қайтиб келаётгани ҳақида у вазирлиқдан хабар олди-ю, ўзи бориб Эленга айтишига аҳд қилди. Оқсоқол борганида Элен боғида кўймаланиб юрган эди. Бу – қишлоқнинг ёнг хушманзара боғларидан бўлиб, эшикнинг икки томонини атиргуллар безаб турарди.

– Леймари хоним, сизни яхши биламан, эрининг қайтиб келаётганидан оғоз қилиб қўйиш лозим бўлган аёллардан эмассиз. Аммо, шуни айтишим керакки, хатти-ҳаракатингиз, одобингиз билан бутун қишлоқ аҳлиниг ҳурматига сазовор бўлгансиз. Ҳатто оғзига келганини аямай, ҳар қандай аёлни бадном киладиган гийбатчи хотин-халажлар ҳам сизни ёмонлашга сўз тополмаятилар.

– Бирор нарса топишар, оқсоқол, – деди Элен жилмайиб.

– Мен ҳам шундай бўлар, деб ўйлагандим, ха, ўйлаган эдим!.. Аммо сиз уларни ҳам ром қилиб қўйдингиз. Мен сизнинг қувончингизни ўз кўзим билан кўргани келдим. Шуниси ҳам борки, унинг келишига ҳозирлик кўришингиз керак, Леймари хоним. Турмуш оғир, ҳаммамизнинг

аҳволимиз маълум: ҳар куни дастурхон тузай олмаймиз-ку...

– Жуда яхши қилибсиз, жаноби оқсоқол. Мен Ренони шундайин кутиб олайки! Йигирманчи августда, дедингизми? Поезд соат нечаларда келаркин? Билмайсизми?

– Вазирлиқдан хабар қилишларича, тунги соат ўн бирда йўлга чиқади. Бу поездлар жуда имиллаб юради... Тевъер вокзалида поезддан тушса, бу ергача Рено яна тўрт километр пиёда босади. Менимча, у тушда етиб келса керак.

– Мен уни кутиб олишга шундок ҳозирлик кўрайки, жаноби оқсоқол, шоҳона бир дастурхон тузайки... Шундок хушхабарни келтирганинг учун мингдан-минг сизга!

– Шардайда сизни ҳамма ҳурмат қиласади, жонидан севади, деса ҳам бўлади. Сиз асли бу ерлик эмассиз, лекин ҳамма сизни ҳамқишлоқ деб билади.

Ниҳоят, оқсоқол хайрлашиб, чиқиб кетди.

Элен Леймари эри келишидан бир кун аввал бутун ўйни саронжом-сарыштади: полни ярақлатиб, дераза пардаларини эскирган ленталаригача янгилади. Кейин қишлоқ сартарошинига бориб, сочини жингалак қилиб келди. Туни билан бошига тўр кийиб ётди. Сал-пал ухладими-йўқми, яна азонлаб туриб олди. Сўнг кийимларини бир-бир кўздан кечириди. Узоқ ёлғизлик даврида бир марта ҳам кийилмаган, ўзи севган шоҳи ичкўйлагини ажратиб қўйди. «Қайси кўйлагим кийсамикин, бир вақтлар эрим ёқтирган зарҳал йўлли ҳаворанг кўйлагим кайал экан?» Бироқ уни кийиб кўргач, дарҳол ечиб ташлади: ўтган йиллар давомида шунчалик озиб кетганидан, кўйлак ҳалпиллаб, беллари осилиб қолганди. Йўк, ўзи тиккан қора кўйлагини кия қолади: ёқасини бежаб, белига рангор белбоғ тақади.

Дастурхон тузашга киришишдан аввал Элен эри ёқтирган таомларни эслашга ҳаракат қилди. 1945 йили Франциядаги ҳали оғир эди. Бирини топсанг, бирин ўйк... Эри сиз узалини ёқтирганди. Шоқолад топиб бўлармиши? Яхшиямки, кичкинагина шахсий хўжалиги бор. Шу туфайли товуқлар тухум бериб туради. Эри доимо: «Қўймоқни ҳеч ким сенек мазали тайёрлай олмайди», деб мақтарди. Рено яхна гўштни, қизартириб пиширилган олмани ҳам хуш кўргучи эди. Лекин шардайлик қассоб икки кундан бери дўконни очмай қўйди... Элен ўтган куни сўйилган товуғини яхшилақ ковурди. Қўши қишлоқдаги дўкончи яширинча шоқолад сотаркан, деб қўшнисидан эшитганди, бориб келишга аҳд қилди. «Соат саккизда кетсан, тўққизгача қайтиб келаман... Кетгунимча дастурх

# Turmush chorrahasi



# ОРИЯТСИЗ ҮФИЛ

(воқеий ҳикоя)



опа. – Ҳали келин томоннинг чақириндиси турибди.

– Қизиқсан-да, хотин, ўғлинг оддий қасб әгаси эмас, – бироз викор билан ўғлининг ўрнидан жавоб қайтарди Файбулла ака. – У ҳарбий хизматчи, юрга керакли одам. Ҷақиридими, бориши шарт!

– Үнда келинни қачон олиб кетасан? – ўғлига термилди она.

– Ҳарбий қисмга борай-чи, нима гап. Вазиятга қарайман-да...

Жамшид шу тариқа кўзлари баҳтдан ёниб турган келинчакни ота-онасининг олдида қолдириб, хизмат жойига жўнаб кетди. Орадан ҳафталар, ойлар ўта бошлади. Ҳар гал унинг телефондаги жавоби битта: «Оилавий яшаш учун яхшироқ жой изляпман. Кўнглимдагидек жой топилмаяпти, шароит яратиб, кейин олиб келаман...»

Орадан уч ой ўтгач, Мұхаррам опа «Жамшидбегим, ота-онам умид билан келин қылган, хотиним учтourt ой уларнинг хизматида бўлсин, деб истиҳола қиляпти чоғи. Яхшиси, келинимни ўзим олиб бора қолай, ёшлар ҳаётининг бошидан бирга яшаб қуша қарисин», деган ширин ўйда Лайлони олиб, ўйлага отланди. Ғиёс ака хотинининг мақсадини кўллаб-кувватлади. Эрхотин воқеалар кутилмаган тус олишини хаёлига келтирмаган эди...

Мұхаррам опа ўғлини ҳарбий қисмдан топа олмагач, сафдошларининг кўмаги билан у яшаб турган ижара уйига борди. Борди-ю... онаизор ва келинчак «етти ухлаб тушига кирмаган» аянчли манзарага дуч келди. Жамшидинг ўзидан анча ёши катта хонадон бекаси Альфия билан яшаб юргани ошкор бўлди. Янада аянчлиси, уч фарзанднинг онаси Альфиянинг қонуний эри бўлиб, у оиласи таъминоти учун хорижга ишлагани кетганди.

«Бу яқиндагина «ўғлингизнинг тутинган опасиман», деб тўйга бориб, саруполар кийиб қайтган аёл-ку», ранги ўзгарди Мұхаррам опанинг. «Йўқ... бундай бўлиши мумкин эмас... менинг ўғлим бундай разилликка бормайди...»

Юэзис аёлнинг беҳаёҳ ҳаракатию, ишонган ўғлининг ориятсизлиги Мұхаррам опанинг юрагига санчик бўлиб кирди, дард бўлиб кирди. Асал ойи деб атамиши илк оилавий ҳаёти кутилмаган тўфонга дуч келган, келинчакни орзулари чил-чил синган гўзал Лайло эса докадек оқариб, қотиб турарди. Жамшид онасининг олдида бос эгиб турган бўлса-да, нигоҳида ҳеч қандай афсус ва надомат сезилмасди.

«Бу хатони тўғрилаш керак – ўзини кўлга олди она. – Ҳозироқ командирларидан илтимос қиласман, ўғлимнинг хизмат жойини тезроқ бошка ҳудудга кўчиришларини сўрайман. Бу аёлдан қанча узоқ бўлса, шунча яхши». Вазиятдан хабар топган ҳарбий қисм командири ҳолатни ўрганиб чиқди. Жамшидга офицер устозлари ўгит ва маслаҳатлар берди. Фарзандининг оиласини сақлаб қолиш, ўғлини хато йўлдан қайтиб, ўзини кўлга олиши учун имконият яратишларини сўраган бағриқон онанинг илтимоси қондирилди. Ёш офицернинг хизмат жойи ўзгартирилди.

2011 йил, серфайз қишлоқ ҳовлиси. Хонадон меҳмонлар билан гавжум. Бугун Файбулла ака билан Мұхаррам опа ўғиллари Жамшидинг үйлантиришяпти. Ота-онанинг қувончи чексиз. Эрхотин икки-уч кундан буён тин олмади, ухламади ҳисоб. Ахир элга тўй бериш, келин туширишнинг ўзи бўладими. Бир томони ўғиллари ҳарбий хизматчи, офицер. Ҳарбий билим юритда бирга таҳсил олган дўстлари, хизматдаги сафдошлари ташриф буюришган. Қатор уйлар, ҳовлига жойлаштирилган тўкин хонтахтаю стол-стуллар меҳмонларга мунтазир. Эрта тонг «наҳор оши»дан бошланган тўй тадбири «хотин оши», «коллектив давраси» каби меҳмон кутиши билан давом этмоқда.

Ховлиниг четига оқ бўздан ўраб қилинган «ошхона»даги бир қатор катта қозонларда тайёрланаётган ош-овқатлар навбати билан меҳмонларга тортиляпти. Биқирлаб қайнатётган самовар бошидаги йигитчаларнинг кўли қўлига тегмайди.

Мұхаррам опанинг кайфияти кўтаринки. Уч-тўрт кундан буён бедорлигига қарамай, чарчоқ нелигини сезгани йўқ. Ахир ўқимишли, чиройли, чевар-чечан келин оляпти. Ҳа, бўлажак келин – Лайло чиндан-да сувлов. Бундай келин ҳаммага ҳам насиб қиласвермайди. Офицер ўғлига ҳар жиҳатдан мос. Бир томони ўзининг узоқ қариндоши. Йигитнинг ҳарбий соҳада хизмат қилиши қудаларнинг розилигига сабаб бўлди. Энди бағридан узоқда хизмат қилаётган жигарпорасининг иссиқ-совуғидан хавотир олмаса ҳам бўлади. Тўйдан кейин расм-руссумларни тезроқ якунлаб, ўғлининг олдига келинини олиб бориб кўяди, кўнгли хотиржам тортади.

Ана, келин-куёв машинаси дарвозахона олдига келиб тўхтади, тўй ахли уларга пешвуз чиқишига шошилди. Даврада «тўйлар муборак» садоси янгради, ўзгача файз, ўзгача шукух... Мұхаррам опанинг қалби ҳаяжонда...

\* \* \*

– Дада, хизматга қайтмасам бўлмайди, – тўйдан беш кун ўтиб, ота-сига вазиятни тушунтириди Жамшид. – Командирим «Тез етиб кел!» деб телефон қилди. Биласиз-ку, вазифам масъулиятли.

– Ҳарбийларнинг ҳаёти шундай, – хўрсинди оила бошлиғи. – Қачон ўйлга тушмоқчисан?

– Ҳозироқ кетсам яхши бўларди, буйруқ-буйруқ-да.

– Бу нима деганинг, ўғлим, отпускангнинг ярми ҳам ўтмади-ку, – ҳайрат ила сухбатга қўшилди Мұхаррам

Бу гал фарзандининг виждонлизлигидан кўкси эзилган Ғиёс ака боласининг оилавий ҳаёти изга тушиб кетиши учун астойдил ҳаракат қилди. Келин-куёв учун ҳарбий қисм яқинидан ижарага ўй топди. Ўғлига минг бир насиҳат ила Лайлони унинг олдига ташлаб қайтди.

– Сабрингиз учун сизга раҳмат, қизим! – қайтиш олдида келининг миннатдорчилик билдириди Файбулла ака. – Оила сирини, обўсуни сақлай оладиган сиздек оқила фарзанд улғайтирган ота-онангизга раҳмат! Ҳали ҳаммаси яхши бўлади.

– Бахтимизга соғ бўлинг, дадажон! – синик жилмайди Лайло.

– Ташвиш қилманг, Жамшидбек бир адашди-да, бу йўлга қайта оёқ босмайди. Онангиз билан тез-тез келиб турамиз...

Бироқ отанинг орзулари сароб бўлиб чиқди. Ноқобил ўғил танлаган йўлидан қайтмади. Эрининг меҳрсиз ва беэътиборлигидан бегона жойларда ёлғизланиб қолган Лайло ўз оиласига қайтишга мажбур бўлди. Келинчакнинг аччиқ кўз ёшлари, ўғилларининг қариндош-урӯғ, эл-юрт олдиаги шармандали ҳаракати ота-онанинг қаддини эгди. Негаки, Жамшидинг жазмани Альфия икки фарзандини болалар уйига топшириб, қизаси билан у хизмат қилаётган жойда бирга яшамоқда эди.

Ўғлини тўғри йўлга солиш мақсадида онаизор яна йўлга отланди. Командирларидан унга хизмат таътили беришларини зорланиб, илтимос қилди. Мақсади – эзгу ришталар или боғланган янги оиласи асрар, қолаверса, катта бир оиласининг бузилиб, болалари тирик етим бўлишига сабабчи бўлган бағритош ўғлини қинғир йўлдан қайтариш. Албатта, бу воқеалардан хабардор бўлган хизмат бошликлари ҳам қараб туришмади. Жамшидинг хизмат бурчига, офицерлик шаънига ҳар томонлама лойик бўлишга даъват этишиди. Маълум чоралар кўрилди ва яна онанинг илтимоси қондирилди – ўғлига хизмат таътили берилди.

– Она, шу ерда ўтириб туринг!

– Шошилди Жамшид. – Ҳарбий қисмга бориб, таътила чиққанлигим тўғрисидаги хужжатларни тўғрилаб келаман.

– Узоқ қолмайсанми, болам?

– Йўқ, тез қайтаман, сиз тайёрланаб туриң!

Ҳар лаҳзаси бедор ўтаётган Мұхаррам опа «ишонган тоги»нинг йўлига кўз тутишни бошлади. Бир соат... уч соат... Ҳамон ўғлидан дарак йўқ. Кута-кута ҳолдан тойган онаизор ўғлининг пасткашлигини тушуниб етгач, хушини йўқотаёэди. Нобакор ўғил (агар ўғил дейишига лойик бўлса) онасини на бир таниши, на бир яқини бор бегона жойларга ташлаб, жазмани билан қочиб кетганди. Она титраб-қақшаб, кўз ёшлари юзини ювиб, узоқ йиғлади...

Ҳарбий қисмдаги йигитлар Мұхаррам опага оналарига меҳр кўрсатган каби далда бўлишди. Қишлоғига етиб олишига ёрдам беришди. Ана шунда Ватан, она пойига жон тикишга шай турган юксак қалб эгалари – ҳарбийлар сафида ўғли сингари номардларга жой йўқ эканлигини англаб етди. Ота-онанинг илтимоси билан Жамшид ҳарбий хизматдан четлатилди.

Мұхаррам опа ориятсиз ўғлининг суратига термилиб, қароғларидан қўйилаётган аччиқ ёшни рўмоли учига қайта-қайта артар экан, беихтиёр унинг кўз олдида болалик чоғлари гавдаланди: ўғилчасини дунёга келтириш оғир кечганди, ўшанда. Айникса, онанинг аҳволи барча яқинларини жиддий хавотирга солган. Тортган азоблари ортда қолиб, ана, жигарпораси атак-чечак қадам ташляяпти. Чала-ярим айтган илк сўзлари, «она» деган сўзи худди ҳозиргидек юрагини орзиқтириб ўтди. Орқасига сумкачини осиб, илк бор мактабга чиқкан чоғлари-чи? У кунларни эслаш она учун қанчалар totли. Мана, у ниҳоят соғлом, кўркм бўлиб, вояга етди. Ота-онанинг дуоларию Жамшидбекнинг астойдил ҳаракати сабаб у курсантлик либосини кийди. Эл-юрт олдида Файбулла ака билан Мұхаррам опанинг кўкси осмон бўлди, гўё.

Энди она учун соғинч онлари бошлианди. Она она-да, боласини «кatta» ўқишига кирганидан қанчалар қувонмасин, бағридан узоқдалиги дилини эзив турарди. Ўғлининг яхши кўрган таомини тайёрлаган кун дастурхон устида томогидан овқат ўтмай, аста кўз ёш қилиб олган пайтлар кўп бўлган. Ва ниҳоят, паҳлавони офицерлик либосини кийди...

Мұхаррам опа ҳаёли шу ерга келганида, юрагини чангллади... Ҳа, иродасиз, ахлоқсиз ўғил ота-онани зор қақшатди. Чимилдиққа гўзал орзулар или кирган фаришта янглиғ қизнинг ҳаётини поймол қилди. Тирик етимлар сони кўпайди. Энг ёмони, она хўрланди. Онани хўрлаган инсон эса ҳеч қачон Ватанга садоқатли бўла олмайди.

**Зулфия ЮНУСОВА,  
«Vatanparvar»**



# Tanlov



**«Халқаро оила куни» муносабати билан Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари қўмондонлигига «Янги Ўзбекистоннинг ибратли оиласи» шиори остида «Ибратли ҳарбий оила» кўрик-тандовининг республика босқичи бўлиб ўтди.**



Бир қатор давлат ва жамоат ташкилотлари билан ҳамкорликда ўтказилган мазкур тандовда мамлакатимизнинг турли ҳудудларидан келган 6 нафар оила иштирок этди. Қуръа ташлаш маросимидан сўнг, оилаларнинг қатнашув кетма-кетлиги аниқлаб олингаш, шартларни бажаришга киришилди.

Биринчи шарт «Саломлашув» деб номланиб, унда қатнашчилар ўз оилаларини шеърий тарзда, куй-қўшиқ, рақслар ҳамда видеолавҳалар ёрдамида батафсил таниширишга ҳаракат қилдилар. Мазкур шарт давомида ҳарбий оилаларнинг рамзий либоси, кўкрак нишони ҳамда шиорларига ҳам алоҳида эътибор қаратилди.

Ҳар бир оиланинг тайёргарлик даражаси, интилиш ва ҳаракатлари ҳақамлар ҳайъати томонидан холисона баҳолаб борилди.

Иккинчи шартда, қатнашчилар кундалик ҳаёта учраб турадиган турли иллатлар, оилавий муаммолар, «оммавий маданият» хуружлари ва спиртли ичимлекларининг салбий оқибатларини таъсирилса саҳна кўринишлари орқали намоён этдилар. Мазкур жараёнда оила аъзоларининг истеъоди, уюшқоқлиги, айниқса, саҳна кўринишларида фарзандларнинг ишонарли тарзда чиқишлиари барчага бирдек манзур бўлди.

Албатта, ҳар бир оилада кенг дунёқараш шакллангани, билим, салоҳият ва тафаккур юқори дараҷада бўлиши мухим аҳамият касб этади. Айни шу маънода, тандов иштирокчиларининг зукколиги ва салоҳиятини синовдан ўтказувчи учинчи шарт «Билимдонлар баҳси» деб номланиб, унда оила аъзолари ижтимоий, сиёсий ва ҳаётий мавзу-

лар бўйича тайёрланган саволларга жавоб бердилар.

Кўрик-тандовнинг иккинчи куни Тошкент денизи дам олиш масканида очик осмон остида ташкил этилиб, ҳарбий оилалар дастлаб «Спорт - саломатлик гарови» шиори остидаги эстафетада ўзаро беллашдилар. Қисқа масофага югуриш, аргамчидаги сакраш ва тўлни саватга тушириш шартлари нихоятда қизгин кечиб, ҳар бир оила эпчиллик ва ҷаққонликларини намоён этган ҳолда, шартларни қисқа фурсатда тез ва тўғри бажаришга ҳаракат қилдилар.

Спорт мусобақалари якунига етгач, тандовнинг сўнгги «Ошга марҳамат» шартига старт берилди. Ушбу шартда оилаларнинг аҳиллиги, ҳамжиҳатлиги, пазандалик ва саранжом-саришталиклари синовдан ўтказилди. Қисқа фурсатларда тай-

ёрланган ошларга ҳайъат аъзолари томонидан муносаб баҳо берилди.

Кўрик-тандовнинг тақдирлаш маросими пойтахтимиздаги Ёшлар ижод саройида бўлиб ўтди. Тадбир аввалида ташриф буюрувчилар эътиборига ижодий ишлар кўргазмаси ҳавола этилди. Шундан сўнг уч кун давом этган қизгин ва муросасиз баҳслар натижаларини эълон қилиш ҳамда ғолиб ва совриндорларни тақдирлаш маросими бошланди. Унга кўра капитан Инакжановлар оиласи «Энг билимдон оила», оддий аскар Хамзаевлар оиласи «Энг аҳил оила» ва кичик сержант Исмоиловлар оиласи «Энг шижаотли оила» номинациялари соҳиби бўлди. Фахрли учинчи ўрин майор Қодировлар оиласига, иккинчи ўрин эса кичик сержант Ўразбаевлар оиласига насиб этди. Кўрик-тандовда биринчи ўринга муносаб деб топилган кичик сержант Рустамовлар оиласи «Энг ибратли ҳарбий оила» дея эътироф этилди.

Тадбир давомида элимиз ардоғидаги санъаткорлар, Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари ашула ва рақс ансамбли хонандалари томонидан намойиш этилган концерт дастури барчага кўтаринки кайфият бағишилади.

**Майор Фарида БОБОЖОНОВА**  
ДХХ Чегара қўшинлари

# Ilmiy-amaliy anjuman



## **Ҳарбий психология ва педагогиканинг долзарб масалалари**

**Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юртида «Офицер кадрларни тайёрлашда замонавий ҳарбий психология ва педагогика: муаммо ва ечимлар» мавзусида республика илмий-амалий конференцияси бўлиб ўтди.**

Миллий армиямиз учун юқори малакали офицер кадрларни тайёрлаш, ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳини мустаҳкамлаш бўйича белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш, шунингдек, олий ҳарбий билим юртларида ҳарбий психология ва педагогика фанларини ўқитишизимини янада тақомиллаштириш мақсадида ташкиллаштирилган мазкур тадбирда бир қатор олий ва олий ҳарбий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, етакчи мутахassislar иштирок этди.

Доимий жанговар шайлик ва ҳушёрлик, ҳарбий бўлинмаларнинг уйғунлиқдаги ҳаракатларини таъминлаш, хизмат ва жанговар вазифаларни сифатли ва ўз вақтида ҳал этиш, ҳарбий жамоаларда соғлом мухитни шакллантириш ҳамда мустаҳкам ҳарбий интизомга эришишда ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тарбияси мухим аҳамият касб этади. Чунки ҳарбий хизматчи руҳан соғлом бўлсагина юзага келадиган ҳар қандай қийин шароитда ҳам руҳий ҳолатини назорат қила олади, ҳис-туйғуга берилмайди. Кучли иродада, бардошлилик

ва сарб-қаноат каби фазилатларини намоён қилади. Маъruzalarda соҳа мутахassislari шу ҳақда атрофлича фикр юритар экан, қўшинлар фаолиятида ҳарбий психологиянинг ўрни ва вазифаси, жанговар тайёргарлик жараёнида ахлоқий-руҳий тайёргарликни ташкиллаштириш усуллари, ҳарбий хизматчиларни фаолиятида психологик ва педагогик билимларнинг аҳамияти, инсон руҳияти ва унга таъсири қилувчи омиллар, ҳарбий жамоа психологияси, ҳарбий жамоада педагогик қонуниятларни очиб бериш усуллари ҳамда тарбиявий-мағкуравий ишларнинг асосий мақсади хусусида қимматли маълумотлар беришди. Соҳада эришилган илфор тажрибалар эътироф этилди.

Қизгин муҳокамага бой ўтган конференцияда ҳарбий психология ва педагогика фанларини ўқитишини тақомиллаштириш, мазкур фан ўқитувчилари ўртасида ўқув, илмий-услубий ҳамкорликни йўлга қўйиш, тажриба алмашиш, ҳарбий психология ва педагогика фанини ўқитиши самарадорлигини ошириш, курсантларда барқарор ахлоқий-руҳий сифатларни шакллантириш тизимини тақомиллаштириш бўйича асосли таклифлар илгари сурилди.

**Майор Гулнора ҲОЖИМУРОДОВА**



# Xorij armiyalarida

# ЛИВАН АРМИЯСИННИГ КУРУКЛИКАДИ



ҚУШИНЛАР



Қўшин тури – Қуруқлиқдаги қўшинлар

**Умумий сони деярли 80 минг киши**

Жанговар танклар 262 та



Зирҳли жанговар машиналар 1 262 та



Артиллерия тўплари,  
миномётлар 450 та



Танкка қарши  
ракета комплекслари 270 та



Маълумки, Яқин Шарқ мамлакатларидағи ҳарбий-сиёсий вазият доимо кескин ва мураккаб бўлиб келган ва бундай ҳолат ҳозирда ҳам давом этиб келмоқда. Ўрга денгизнинг шарқий соҳилидаги тофли ҳудудда жойлашган Ливан Республикаси ана шу минтақада марказий ўринлардан бирини эгаллайди. Умумий сони деярли 7 миллион кишидан иборат бўлган мамлакат аҳолисининг 90 фоиздан ортигини араблар ташкил этади. Бундан ташқари, мамлакат ҳудудида 400 мингта яқин фаластинлик қочоқлар истиқомат қилади.

Ливан шимол ва шарқ томонда Суряя билан, жанубда – Истроил билан чегарадош. Ўзининг географик жойлашуви ва тарихий ривожланиш хусусиятларига кўра, бу давлат Шарқ ва Фарбади турли мамлакатларнинг сиёсий, ҳарбий-стратегик, иқтисодий ва диний манбаатлари тўқнаш келадиган жой бўлиб қолмоқда. Ҳозирги вақтда Истроил, Эрон, АҚШ, Франция ва бошқа бир қатор мамлакатлар Ливандаги ўз позицияларини мустаҳкамлаш бўйича фаол иш олиб бормоқда.

Ливан Қуролли Кучлари расман 1945 йилнинг 1 августида ташкил топган. Миллий армия Франция босқини даврида юзага келган маҳаллий ҳарбий қўшилмалар, шунингдек, 1946 йилда француз қўшинлари мамлакат ҳудудидан олиб чиқилганидан сўнг улардан қолган ҳарбий қисмлар, қурол ва ҳарбий техника захиралари асосида ташкил этилган. Армиянинг асосий ва энг кўп сонли тури ҳисобланувчи Қуруқлиқдаги қўшинлар (ҚҚ)нинг умумий сони деярли 80 минг киши бўлиб, бу Ливан Қуролли Кучлари жами шахсий таркибининг 95 фоизини ташкил этади. Қўшин таркибидан мотопиёдалар, бронетанк, тог пиёдалари қўшилмалари, қисм ва бўлинмалари жой олган. ҚҚ жанговар таркибида 12 та алоҳида бригада (шу жумладан, 11 та алоҳида мотопиёдалар бригадаси ва 1 та Республика гвардияси бригадаси); алоҳида полклар (б та коммандос, танк, десант-штурм, разведка ва маҳсус вази-

фаларни бажарувчи, 2 та артиллерия, 4 та чегарани қўриқлаш полки); қўллаб-куватловчи бригада, тог пиёдалари ва снайперлар роталари бор. Улар «Бекаа» (штаби Абллаҳ шаҳрида жойлашган), «Байрут» (Байрут ш.), «Тоғли Ливан» (Фаядия ш.), «Шимол» (Триполи ш.) ва «Жануб» (Сайдиа ш.) деб номланган 5 та ҳудудий қўмондонлик томонидан бошқарилади. Кескин вазиятлар юзага келган ҳолатларда бу турдаги қўшинлар захирадан чақириладиган деярли 50 минг нафарга яқин резервистлар билан кучайтилиши мумкин.

ҚҚни бутлаш шартнома асосида амалга оширилди. Аввал Ливанда 18 ёшгача бўлган фуқаролар 1 йил давомида мажбурий тарзда ҳарбий хизматни ўташлари белгиланган эди. Улар ўқишдан бўш вақтларида, шунингдек, ёзги таътил даврида армия сафида хизмат қилиши талаб этиларди. 2005 йилда янги чақириув тизими қабул қилиниб, унда хизмат муддати б ой этиб белгиланган. 2007 йилнинг 10 февралидан бошлаб мажбурий ҳарбий хизмат бекор қилинган ва ихтиёрий равишдаги шартнома бўйича хизмат тури жорий этилган.

Бу турдаги қўшинлар учун офицер кадрлар тайёрлаш пойтахт Байрут шаҳрида жойлашган қўмондонлик-штаб коллежи, ҳарбий билим юрти ва ҳарбий институтда амалга оширилади. Унтер-офицерлар ва оддий аскарлар таркиби аъзоларини ўқитиш сержантлар тайёрлаш мактаби, маҳсус вазифаларни бажарувчи бўлинмалар ҳарбий хизматчилари мактаби, «Кедри»

чанғичилар мактаби, шунингдек, «Ал-Урвар» ва «Арман» ўқув марказларида олиб борилади. Бундан ташқари, ливанлик ҳарбий хизматчиларнинг маълум қисми Суряя, Миср, Туркия, Италия ва Бельгиядаги тегишли ўқув юртларида таълим олиши йўлга қўйилган.

Ҳозирги вақт келиб, ҚҚ тасарруфида M60A1, M48A2, M48A25, T-54, T-55 ва AMX-13 типидаги жанговар танклар (жами 252 та), M113, VAB-VTT, M-3 «Панар», AML-90 «Панар», M2A2 «Брэдли» типидаги зирҳли жанговар машиналар (1262 та), турли типдаги ўзиюрар ва шатакка олинувчи гаубицлар (214 та), миномётлар (236 та), BM-21 «Град» типидаги бараварига ўт очувчи реактив тизимлар (11 та) ва танкка қарши кураш тизимлари (270 та) мавжуд бўлиб, уларнинг аксарият қисми АҚШ, собиқ иттифоқ ва Францияда ишлаб чиқарилган.

Ғарб ҳарбий мутахассислари таъкидлашича, умуман олганда Қуруқлиқдаги қўшинлар, айниқса, офицерлар таркиби яхши жанговар тайёрғаликка эгалиги билан ажralиб туради, аммо қўшиннинг умумий техник таъминоти паст даражадалигича қолмоқда. Шу сабабли яқин истиқболда Ливан армиясининг, шу жумладан, Қуруқлиқдаги қўшинларнинг жанговар шайлигини сақлаб турish ва ривожлантириш бевосита хорижий давлатлар томонидан кўрсатиладиган ҳарбий ёрдам ҳажмига, шунингдек, асосан АҚШ ва НАТО мамлакатларидан қуроллар, ҳарбий техника ва зарурий эҳтиёт қисмлари харид қилинишига боғлиқ бўлади.

# MUVAFFAQIYATGA ERISHISH SIRLARI

(Psixolog maslahati)

*Hayotda ko'p muvaffaqiyatga erishgan kishilarga xotirjam yashash, baxtli bo'lish, yanada unumli ishlashi uchun nimalar yordam beradi, deb o'ylaysiz? Ular tongda nimalar bilan shug'ullanadi?*

Bugun omadli insonlarning ertalabki odatlari bilan tanishib chiqamiz.




## BARVAQT UYG'ONISH

Vaqt nihoyatda qadrli ne'matdir. Buni yaxshi tushungan, qadriga yetgan insonlar tonggi 5:30, 4:30 hatto 4:00 da turishga odatlanishgan.

Shunday ekan, uyqidan vaqtliroq uyg'onishga odatlaning. Bu jarayonni har kuni soat millarini 15 daqiqaga oldinga surib, sekin-asta barvaqt turishga odatlaning.

## BADANTARBIYA MASHQLARINI BAJARISH

Erталабдан jismonan tetik bo'lish uchun yengil mashqlar bajaring. Bundan tanangiz yayraydi, sizga rahmat aytadi. Mashg'ulotlar sizni faqat sog'lon qilibgina qolmay, irodangizni mustahkamlaydi, stressga bardoshlligingizni oshiradi. Mashq bajarish uchun ma'lum bit vaqtini belgilab oling.



## QALBNI TOZALASH

Turli yomon fikrlarni xayolingizdan chiqarib tashlang. Bu sog'lig'ingizga qanchalar ziyor yetkazishini tushunib yetasiz. Mulohaza qiling, sukut saqlang, duo qiling!

Unutmang: 90 foiz kasalliklar siqilish oqibatida kelib chiqadi.

Shunday ekan, ko'nglingizni xira qiladigan narsalardan o'zingizni chetga torting. Qalbingizni asrang!

## VAQTNI BOLALAR BILAN O'TKAZISH

Vaqt ayovsiz, ko'z ochib-yumguncha farzandlaringiz katta bo'lib qolishadi. Ular bilan vaqtimni o'tkazolmadim, deb afsuslanib qolmang. Ishingiz oilaviy hayotingizga xalaqit qilmasin. Erta tongda qizingiz yoki o'g'lingizga kiyinishida yordamlashing. Ozgacha, ular istaganidek nonushta tayyorlab bering. Ularning orzulari haqida suhbatlasing. Farzandlaringiz katta bo'lishganida bu ularning yoqimi xotiralaridan joy egallaydi.



## TURMUSH O'RTOG'INGIZ BILAN MULOQOT

Erталаб ma'lum vaqtini turmush o'rtoq'ingiz bilan aloqani tiklash, mustahkamlashga ajrating. Ul bilan rejalarining, moliyaviy ahvolingiz va qiziqishlaringiz haqida suhbatlasing. Bu sizga uning hayotida o'z o'rningizni saqlab qolishga yordam beradi. Shuning uchun er-xotin suhbatini an'anaga aylantirish juda muhim.



## REJA TUZISH

Kuningiz unumli bo'lishi uchun reja tuzib olish juda zarur. Vaqtinzingizning bir necha daqiqa bugungi kuningiz yo'nalishini belgilab olish uchun ajrating. Hayotda oldingizga qo'ygan maqsadlaringizni bir bor ko'z oldingizga keltiring. Bunga 10 daqiqa vaqt ajratishni odat qilsangiz, ishlaringiz tartibli bo'ladi.

## Kartoshkali zapekanka

Bu mazali taomni nonushtaga ham, tushlikka ham tayyorlash mumkin.

Kerakli masalliqlar:

- 5-6 dona kartoshka
- 250 g qiyma yoki qo'ziqorin
- 1 dona piyoz
- 50 g sariyog'
- 1 dona qizil sabzi
- yog', tuz va murch.

**Tayyorlash jarayoni:** kartoshkani tozalab, bolaklarga bo'lib qaynating. Pishigach ezib, sariyog' va tuz aralashtiting. Qo'ziqorin yoki uning o'rniiga qiymani tovada ozgina yog' bilan qovurib, unga mayda qilib to'g'ralgan piyoz, sabzini aralashtiting. Tuz, murch soling. Kartoshka pyuresini ikkiga bo'lib, bir qismini tovaga soling. Uning ustidan qiymani bit tekis qilib quying, kartoshkaning qolgan qismini soling. Xohishga ko'ra, ustini chiroyli qilib bezatish mumkin. Qizdirilgan gaz pechida 20 daqiqa davomida pishirib oling.

Yoqimli ishtaha!

Go'zallik uchun  
15 daqiga



Havo harorati ko'tarilgani sayin yuz terisida turli o'zgarishlar seziladi. Hoji boricha yuzingizni quyosh nuridan asrang. Ko'chaga chiqishdan avval, albatta, quyoshdan himoyalovchi kremlardan foydalaning.

Bugun quyoshli kundan so'ng qilinadigan oddiy muolajalarni siz uchun saraladik. Niqob yuzga qalin qilib suriladi. 15-20 daqiqadan so'ng iliq suvda yuviladi.

- 1 osh qoshiq suzma, 1 tuxum oqi va 1 osh qoshiq o'simlik yog'i yaxshilab aralashtiriladi. Niqob yuzga qalin qilib suriladi. 15-20 daqiqadan so'ng iliq suvda yuviladi.
- 1 bog' shivit(ukrop) 0.5 litr suvda 10-15 daqiqa qaynatiladi. So'ngra suzib olinadi. Sovigach bu damlamani toza idishga solib, muzlatkichga qo'ying. Bu sehrli damlama bilan har kuni yuz terisini artib tursangiz, teringiz tiniqlashib boradi.



## # E'tirof

## МЕРГАНЛАРИМИЗ ЖАХОН КУБОГИ СОВРИНДОРИ



Беллашувда вакилларимиз аъзолари Муҳаммад Камолов, Вениамин Никитин, Умидбек Камолбеков кумуш медалларни қўлга кириди.

– Ушбу спорт тури билан ёшлигимдан шуғулланаман. 2 марта Ўзбекистон чемпиони, Осиё чемпионатида олтин медаль соҳиби бўлдим. Бу 18-медиалим. Мудофаа вазирлиги Спорт маркази базасида мутахассислар билан биргалиқда шуғулланамиз. Ватанимиз байроғини жаҳон чемпиони сифатида юксакларга хиллериатиш ниятидаман, – дейди Умидбек Камолбеков.

Кутиб олиш маросимида мудофаа вазирининг ўринбосари полковник Ҳамдам Қаршиев, Ўзбекистон ўқотиши федерацияси раисининг ўринбосари ёшлар ўртасидаги жаҳон кубогида қўлга киритилган ilk медаллар билан барча йигилганларни самимий қутлади ҳамда ғолибларга

Тошкент халқаро аэропорти ғолибларни кутиб олувчилар ҳисобига байрамона тусга кирди. Дунёнинг турли мамлакатларидан келаётган сайёхлар ва ҳамюртларимиз ҳарбий оркестр ва гул кўтарган, зарбоф тўн ушлаган курсантларга ҳавас билан қарашарди. Қизиқонлари тантананинг боисини сўрашади.



Сабаби Германиянинг Зул шаҳрида ўтказилган ўқотиши бўйича ёшлар ўртасидаги жаҳон кубогида терма жамоамиз навбатдаги медалларни қўлга киритиб қайтди. 10 метр масофага тўппончадан отиш мусобақаси Мудофаа вазирлиги Спорт маркази спортчилари учун муваффақиятли ўтди.

**Капитан Азиз НОРҚУЛОВ,  
«Vatanparvar»**

## # Uch avlod uchrashuvি

## «УСТОЗ-ШОГИРД» АНЬАНАЛАРИ УЙҒУНЛАШТИРИЛДИ

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Ахборот технологиялари мактабида кўп йиллар давомида Қуролли Кучлар сафида хизмат қилган фахрийлар, ҳарбий хизматчилар ҳамда мактаб ўқувчилари ўртасида «Уч авлод учрашуви» ўтказилди. Ўнда Мудофаа вазирлиги Фахрийлар кенгаши аъзолари, Ахборот-коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти раҳбарияти, курсантлар ва ўқувчи-ёшлар иштирок этишиди.

Сўзга чиқсан фахрийлар ўқувчи-ёшларга мамлакатимиздаги тинчлик, миллий армиямиздаги ўзгаришлар, шунингдек, республикамизда амалга оширилаётган ислоҳотлар, ёшлар учун яратилган имкониятлардан оқилина фойдаланиб, келажақда ўз ўрнини топиши лозимлигини айтиб ўтишиди.

Таъкидлаш жоизки, ўрта ва кичик авлод вакиллари билан ташкил этилган учрашувларда,

одатда самимият ва маслаҳатлар устуворлик қиласди. Шу аснода хуласалар қилинади, бой тажрибалар ортирилади. «Устоуз-шогирд» анъаналарини уйғунлаштирган, кексаларнинг бой тажрибаларини ёш авлодга улашиш мақсад қилинган мазкур учрашув ҳам кўтаринки руҳда ўтди.

**Дилноза ХУДОЁРОВА,  
Тошкент Давлат педагогика  
университети 1 курс магистранти**

## # Futbol

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ва Футбол федерацияси фахрийлар кенгашлари, "Veteran" жангчи-фахрийлар ва ногиронлар бирлашмаси томонидан 40 ёшдан ошган профессионал ва ҳаваскорлар ўртасида футбол бўйича Ўзбекистон фахрийлари олий лигаси ташкил этилди. Мудофаа вазирлиги спорт мажмусида ушбу мусобақанинг тантанали очилиш маросими бўлиб ўтди.

## ФАХРИЙЛАР «ОЛИЙ ЛИГА»СИ ТАНТАНАЛИ ОЧИЛДИ



Mualif surʼatiga o\u043e\u0431



Маросимда сўзга чиқсанлар бу йил ўзининг 110 йиллигини нишонлаётган ўзбек футболи тарихида яна бир муҳим воқеа – футбол бўйича «Олий лига – 40+» номини олган фахрийлар олий лигаси ташкил топганини таъкидлаб, кейинчалик «Олий лига – 50+» чемпионати ҳам ташкил этилишига ургу берди.

Ушбу чемпионатда ўзбек профессионал футболида ном қозонган спортчилар ҳамда Мудофаа вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати ва бошқа соҳа вакилларидан ташкил топган 12 та жамоа – «Ватанпарвар», «Олимп», «Бўйтон», «Авиатор», «ССБ лочинлари», «Сардор», «Евротим», «Бургут», «Спартак», «Қўйкон-1912», «Интерспорт», «Олмазор» иштирок этмоқда.

**Подполковник Тўлқин ЖУМАНАЗАРОВ,  
«Vatanparvar»**

## КТБ «АВТОСОЗЛАШ»

Установка газобаллонного оборудования пропан и метан в соответствии со стандартами O'Z DST 35.110 и O'Z DST 35.67 и европейским стандартом ЕЭК ООН 110 на все виды автомобилей.

**ЭКОНОМИЯ ТОПЛИВА В 3 РАЗА**

Nexia-3, Damas, Labo, Lacetti, Isuzu, Газель и другие автомобили



**ФОРМА ОПЛАТЫ ЛЮБАЯ!  
УСТАНОВКА В КРЕДИТ**

**ЧТО НЕОБХОДИМО:**

- Паспорт (удостоверение)
- Прописка (г. Ташкент)
- ИИН (копия)
- Справка с места работы



Газовые баллоны и оборудование сертифицированы.  
Гарантийное обслуживание в течение 6 месяцев.  
Проводится обучение водителей для работы на газе.


Город Ташкент, Мирабадский район, улица Эски Саракуль (Бехтерева), дом 103.

98-308-36-08; 98-303-36-08; 71-291-36-08; 93-110-70-70.

avtosozlashuv@mail.ru

Товары сертифицированы, услуги лицензированы

# BOLAJON



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda o'rmondagi barcha hayvonlar ahil-inoq yashar ekan. Sher kiyik bilan sayr qilar, yo'lbars zebralar bilan musobaqa o'ynar, tulki tovuqlarning eng yaqin do'sti ekan. Barcha hayvonlar o't-o'lan va mevalar bilan oziqlanarkan.

O'rmonda bir afsungar kampir ham umrguzaronlik qilarkan. U ham hayvonlar bilan inoq bo'lib, birorta hayvon kasal bo'lib qolsa, darhol davolar ekan. Shu sabab ayiq uni asal bilan siylar, olmaxon yong'oqlar terib berar, echki sutidan, quyonvoy sabzavotli sho'rvasidan in'om qilarkan.

Kunlarning birida kampir betob bo'lib, yotib qolibdi. Biroq uning holidan xabar olgani birorta hayvon kelmabdi. U bundan qattiq ranjibdi. Afsungar kampir bir amallab o'rnidan qo'zg'alibdi-da, hayvonlar o'ynayotgan maydonchaga boribdi. Bir-biri bilan quvlashmachoq o'ynayotgan ayig'-u echki, yo'lbars-u quyon, tulki-yu tovuq unga e'tibor ham bermabdi.

— Ayiqvoy, kasal bo'lib qoldim, asalingdan bersang shifo bo'lardi, — deb iltimos qilibdi kampir.

— Kecha hamma asalimni hayvonlarga tarqatib bergenman. Menda asal qolmagan, — o'yinini davom ettiribdi ayiqvoy.

— Echkivoy, sutingdan ozgina ber, zora betobligim ketib darmonga kirsam, — echkining oldiga borib yalinibdi u.

— Berardim-u, afsus, bolalarim emib qo'ydi-da, — o't yamlashda davom etibdi echki.

— Mayli, unda quyonvoydan sabzavotli sho'rva qilib berishini so'rayman. Quyonvoyning vitaminlarga boy shifobaxsh sho'rvasi, albatta, kasalimga shifo bo'ladi.

Quyonvoy esa sho'rvaga y a r a s h a sabzavotlari yo'qligini bahona qilib, o'yindan ortmabdi.

Shunda kampirning jahli chiqib, hayvonlarni jazolashga qaror qilibdi. Kulbasiga qaytib, sehrli damlama tayyorlabdi va uni tong sahar hayvonlar oziqlanadigan o't-o'lanlar ustiga sepib chiqibdi. O'sha o'simliklardan birinchi bo'lib yegan sher, yo'lbars, tulki, ayiq kabi hayvonlar yirtqichga aylanibdi.

Afsungar kampirning jazosi oqibatida o'rmondagi hayvonlarning inoqligiga putur yetibdi. Yirtqichlar bilan o'txo'rlar bir-biriga dushman bo'lib qolibdi.

Sarvinoz QUDRATOVA,  
Toshkent shahri 241-umumta'l'm maktabi  
5-sinf o'quvchisi

## DO'ST HADYASI



*(hikoya)*

Yangi uyimizga hammayoq oppoq qorga burkangan bir kunda ko'chib keldik. Ko'p qavatlari uyning oldida kattagina bolalar maydonchasi bor ekan. Pastga tushib, qor o'ynagim keldi. Oyimdan ruxsat olib, tashqariga chiqdim. Bitta o'zim uchun o'yin zerikarli edi. Eh-hh, avvalgi yashagan joyimiz bo'lganidami, hozir hamma tomonni do'starimning qiy-chuvi tutib ketardi. Zerikanimdan arg'imchoqda o'tirib, qor yumaloqlay boshladim.

Shu payt qarshimdagagi uyning ikkinchi qavat derazasidan kimdir meni kuzatayotganini sezib qoldim. Qo'limdagagi yumaloqlangan qorni otib yubordim-da, yaqinroq bordim. Men tengi bola ekan. Unga "pastga tush, birga o'ynaymiz" deb ishora qildim. Nimadir dedi, tushunmadim. Anqayib turganimni ko'rib, derazani ocha boshladi. Eskirib ketgan deraza shovqin bilan ochildi va chillakdek ozg'in bola boshini chiqardi.

— Men Zafarman, seni oting nima?  
— Rustam.  
— Pastga tush, birga o'ynaymiz!  
— Tusholmayman.  
— Nega, oying ruxsat bermaydilarmi?  
— Oyog'imga qishki poyabzalim yo'q.  
Maktabga ham borolmayapman.  
— Dadangga aytсанg bo'lmaydim?  
— Mening dadam yo'q.



— Barakalla, o'g'lim, sen bobolaringga o'xshabsan, ularning ishlari taksorlayapsan...

O y i m n i n g qo'llaridan bir quti konfet va krossovkani olib, Rustamlarnikiga uchib bordim. Eshikni Rustam o'chdi. Poyabzalni ko'rib shu qadar sevindi-ki, meni quchoqlab oldi. "Rahmat, do'stim!" deganida men ham quvonib ketdim. Bizni kuzatib turgan oyisi ham kelib, meni quchib, peshonamdan o'pdi va allaqanday titroq ovozda dedi: "Rahmat, o'g'limning do'sti!"

Shamshod YUNUSALIYEV,  
Toshkent shahri 248-umumta'l'm  
maktabi o'quvchisi

### TENGDOSHLARINGIZ IJODIDAN



Lana QURBONNIYOZOVA,  
M. Ulug'bek tumani 210-umumta'l'm  
maktabi o'quvchisi

# Islohotlar samarasi

# МУЗЕЙЛАР – ТАРБИЯ МАСКАНИ

Ўзбекистон Республикаси  
Мудофаа вазирлиги «Рафаба  
БОГИ» ёдгорлик мажмуаси  
«Шон-шараф» давлат  
музейида 18 май – Ҳалқаро  
музейлар куни муносабати  
 билан маънавий-маърифий  
тадбир ўтказилди.



Мудофаа вазирлиги, Ўзбекистон Фанлар академияси Янги Ўзбекистон тарихини ўрганиш методик маркази, Камолиддин Беҳзод номидаги Республика рассомлик ва дизайн институти вакиллари, музейшунос олимлар, Ўзбекистон Қуролли Кучлари давлат музейи ҳамда «Шон-шараф» давлат музейи ходимлари, ҳарбий хизматчилар иштирок этган тадбирда мудофаа вазирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари полковник Ҳамдам Қаршиев сўзга чиқиб, соҳа ходимларни касб байрами билан самимий қутлади. Музейлар ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларни

улуғ аждодларга муносиб ворислар этиб вояга етка-зишда муҳим роль ўйнаб, тарбия масканига айланганини эътироф этди.

Давлатимиз раҳбари ташабуси билан қисқа вақтда барпо этилган «Шон-шараф» давлат музейи экспонатлари хақида сўз юритаркан, шу давргача уруш даврига оид маълум бўлмаган кўплаб фактлар, минглаб ҳужжатлар очиқланди, бедарак



йўқолган юзлаб уруш қатнашчиси бўлган юртдошларимизнинг номи тикланди, деди вазир ўринбосари. Ёдгорлик мажмуаси ва музей барпо этилган вақтдан шу кунгача бу масканга 1 миллион 200 мингдан ортиқ юртимиз фуқароси, хорижий меҳмонлар ташриф буюрган. Ватандошларимиз уйларида сақланаётган ота-боболарига тегишли 14 мингдан ортиқ ноёб экспонатни музей учун топширган ва бу жараён давом этмоқда. Музейда фаолият юритаётган мутахассислар томонидан фронт ва фронт



ортида фидойиларча хизмат қилган юртдошларимизнинг жасорати, матонати ва ғала-бага қўшган мислсиз ҳиссаси борасида илмий изланишлар олиб борилмоқда.

Байрам тадбирида Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган журналист, сиёсий шархловчи Қобилбек Каримбеков, «Қатагон қурбонлари хотираси» давлат музейи директорининг ўринбосари Муроджон Зикруллаев ва бошқалар табрик учун сўзга чиқди.

Тадбир давомида «Шон шараф» давлат музейи китоб-альбоми ҳамда «Марказий Осиё ҳалқлари тарихи ва хотирасида Иккинчи жаҳон уруши» китобининг тақдимоти ҳам ўтказилди.

Мудофаа вазирининг буйругига кўра, Ўзбекистон Қуролли Кучлари давлат музейи ҳамда «Шон-шараф» давлат музейи ходимлари фахрий ёрлиқ, эсадалик нишонлари ва қимматбаҳо совғалар билан тақdirландилар.

Фурқат ЭРГАШЕВ

**Tahririyat kengashi:**  
polkovnik Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrid qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mudofaa vazirligi Axborot va omnaviy kommunikatsiyalar departamenti – «Vatanparvar» birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**

podpolkovnik Ahror Ochilov

**ISSN 2010-5541**

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqами bilan ro‘yxatga olingan.

**Telefonlar:**

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo‘lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Bobur Elmurodov  
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov  
Musahih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: Г-0505  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 31 291 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 1-uy.

## BIR CHIMDIM

Ilmning avvali – sukul, so‘ng eshitish, so‘ng amal qilish, so‘ng uni tarqatish.

Imom G‘AZZOLIY

Haqiqiy yashash to‘g‘ri axborotga ega bo‘lib yashashdir.

Norbert Viner

## BILASIZMI?

### URUSHDAGI VELOSIPEDLAR

XX asr 60-yillarida Vyvetnamdagi urush vaqtida, Vyvetnam harbiy dala gospitallari ichida 3-4 ta velosiped saqlangan. Ularni haydashadi, desangiz, yanglishasiz. Bu velosipedlar faqat ekstremal holatlarda ishga tushirilgan. Masalan, havo hujumlari vaqtida bemorlar operatsiya qilinayotgan bo‘lsa, uni tugallab olish uchun velosipedlar orqali yo‘q bo‘lib qolgan elektr energiyasi hosil qilingan.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot



### SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

#### ТАЪЗИЯНОМА

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги раҳбарияти, марказий аппарати ва шахсий таркиби, Тошкент ҳарбий округи қўшинлари қўмондонлиги, Қуролли Кучлар академияси жамоаси Мудофаа вазирлиги фахрий, Қуролли Кучлар академияси катта ўқитувчisi, резервдаги полковник Равшан ДАДАБОЕВ Маратовичнинг

бевақт вафоти муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинлariiga hamdaridlirk билдиради.

#### ТАЪЗИЯНОМА

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги раҳбарияти, марказий аппарати, вазirlik Tarbiyaviy va maфkuравiy ishlari boш бошқарmasi, mudofaa kўmaklasuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Marказий va Toшkent viloyati kengashlari жамоаси ташкилотнинг Toшkent viloyati kengashi raisi ўринбосари, rезервдаги подполковник Зафар ҚОСИМОВ Бўлишевичнинг

бевақт вафоти муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинlariiga hamdaridlirk билдиради.



MUASSIS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI  
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:  
polkovnik Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrid qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mudofaa vazirligi Axborot va omnaviy kommunikatsiyalar departamenti – «Vatanparvar» birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

**ISSN 2010-5541**

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqами bilan ro‘yxatga olingan.

**Telefonlar:**

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo‘lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Bobur Elmurodov  
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov  
Musahih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: Г-0505  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 31 291 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 1-uy.